



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

# **O'RTA OSIYO ARXELOGIYASI**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI” MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV – USLUBIY MAJMU‘A**

**Toshkent – 2023**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o' rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 11-avgustdagi 4-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o' quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchilar: R. Suleymanov, O`zMU arxeologiya kafedrasining professori  
Y. Muhamedov O`zMU arxeologiya kafedrasining katta o`qituvchisi (PhD).

Taqrizchilar: A. Sagdullayev, O`zMU arxeologiya kafedrasining akademigi professor  
F. Ochildiyev O`zMU arxeologiya kafedrasining dotsenti

## **MUNDARIJA:**

- I. Ishchi dastur
- II. Modulni o`qitishda foydalaniladigan interfaol ta`lim metodlari
- III. Nazariy mashg`ulot materiallari
- IV. Amaliy mashg`ulot materiallari
- V. Glossariy
- VI. Adabiyotlar ro`yxati
- VII. Nazorat savollari

## I. Ishchi dastur

### Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, Jahon arxeologiyasi masalalari, O'rta Osiyo arxeologiyasi bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

## I. Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** “O‘rta Osiyo arxeologiyasi ” fani to‘g‘risida tinglovchiga zamonaviy bosqichga oid chuqur tarixiy bilimlar, yangi ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida axborot berish, shuningdek, O‘rta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasi, arxeologik davrlarning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik iqtisodiy asoslari, ma‘naviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi masalalarini o‘rganishdagi zamonaviy ilmiy bosqichi, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorligi natijada erishilgan yutuqlar doirasida tinglovchilar bilimlarini takomillashtirish, bu boradagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va amalda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:** Tinglovchilarga “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” masalalari bo‘yicha ilg‘or ta‘lim innovatsiyalar, konseptual zamonaviy muammolar va yondashuvlar asoslari to‘g‘risida ma‘lumotlar berish, zamonaviy modulli texnologiyalaridan foydalanib tinglovchilarni mazkur yo‘nalishda malakasini oshirishga ko‘maklashish; O‘rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolarini o‘rganishda informatsion texnologiyalarning tarix fanida tutgan o‘rni, ahamiyati va rivojlanish hususiyatlari haqidagi bilimlarni boyitish; yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, ulardan samarali foydalanish mahoratni oshirish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- O‘rta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasini;
- zamonaviy ilmiy nazariyalarni;
- yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalarini;
- O‘rta Osiyo ilk temir davri asosiy yodgorliklarini;
- O‘rta Osiyoning antik davri arxeologik yodgorliklarini tasnifini;
- O‘rta Osiyoning ilk va o‘rta asr davri arxeologiyasini o‘rganishning asosiy masalalarini;
- O‘rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolarini;
- O‘rta Osiyo arxeologiyasi sohasida erishilgan yangi yutuqlarni

- O‘rta Osiyo arxeologiyasidagi muammolar, jahon sivilizatsiyasi tarixi, jamiyat rivojida inson taraqqiyoti konsepsiyasi bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etishni **bilishi** kerak.
- inson va ekologiya rivojlanishining tabiiy shart sharoitlarining amaliy ahamiyatini anglash;
- O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganishning zamonaviy bosqichini amaliyotda ochib berish;
- ilk paleolit davri makonlaridan (Selengur, Kuldara, Ko‘lbuloq, Obiraxmat va boshqalar) topilgan ibtidoiy odam suyaklari va ularning antropogenez jarayonida tutgan o‘rnini tahlil qilish;
- zamonaviy arxeologiya fanlari yutuqlarini tahlil qilish;
- arxeologiya fanlari sohasida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- elektron bazalardagi arxeologik yodgorliklar joylashgan hudud xaritalarini qayta ishlash
- O‘rta Osiyo arxeologiyasidagi muammolar, jahon sivilizatsiyasi tarixi, jamiyat rivojida inson taraqqiyoti konsepsiyasifanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganishning zamonaviy bosqichi ilmiy- amaliy ahamiyatini anglash va amaliyotga tadbiq etish;
- mezolit davri moddiy madaniyat va xo‘jalik sohalaridagi o‘zgarishlarni bugungi kun yutuqlari bilan taqqoslash va tahlil qilish;
- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;
- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;
- O‘rta Osiyo arxeologiyasidagi muammolar, jahon sivilizatsiyasi tarixi, jamiyat rivojida inson taraqqiyoti konsepsiyasiga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, o‘tkaziladigan amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari,

aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“O'rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolari” kursi o'quv rejadagi, Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi, Tarixiy rekonstruksiya masalalari, Jaxon arxeologiyasi kabi mutaxassislik fanlarining sohalari bilan o'zviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg'or tajribani o'rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir yangi bilimlarga ega bo'lishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	mashg'ulot	mashg'ulot
1	O'rta Osiyoning tosh va paleometall arxeologiyasi masalalari	4	2	2	
2	O'rta Osiyo ilk temir davri arxeologiyasi	2		2	
3	O'rta Osiyoning antik davri arxeologiyasi masalalari	4	2		
4	O'rta Osiyoning ilk o'rta asr davri arxeologiyasi masalalari	2	2	2	
5	O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri arxeologiyasi masalalari	2		2	
6	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasi.	4	2	2	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. O'rta Osiyoning tosh va paleometall davri arxeologiyasi masalalari (2 soat).**

#### **1.1. Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi**



- 1.2. Oʻrta Osiyoning tosh davri arxeologiyasi: yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalari
- 1.3. Oʻrta Osiyoning paleometall davri arxeologiyasi masalalari: tadqiqotlar koʻlamining oʻsishi.

**2-mavzu. Oʻrta Osiyoning antik davri arxeologiyasi masalalari (2 soat).**

- 1.1. Antik davri arxeologiyasining oʻrganishda yangicha yondoshuvlar va ilmiy nazariyalar
- 1.2. Oʻrta Osiyoning antik davri arxeologik yodgorliklarini tasnifi.

**3-mavzu. Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asr davri arxeologiyasi masalalari. (2 soat).**

- 1.1. Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asr davri arxeologiyasi masalalari
- 1.2. Oʻrta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasi. Zamonaviy ilmiy nazariyalar

**4-mavzu. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasi. (2 soat).**

- 1.3. *Oʻzbekiston arxeologiyasi rivojlanishining yangi bosqichi.*
- 1.4. Oʻzbekiston arxeologiyasining xorij bilan ilmiy hamkorligi: zamonaviy tadqiqotlar va natijalar.

**AMALIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashgʻulot.** Oʻrta Osiyoning tosh va paleometall davri masalalari. Oʻrta Osiyo tosh davri jamoalarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi,

xoʻjalik iqtisodiy asoslari, maʼnaviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi (2 soat).

**2-amaliy mashgʻulot.** Oʻrta Osiyo ilk temir davri arxeologiyasi. *Asosiy yodgorliklar va ularning moddiy madaniyati* (2 soat).

**3-amaliy mashgʻulot.** Oʻrta Osiyoning antik davri arxeologiyasi. *Zamonaviy oʻrganish bosqichi. Asosiy yodgorliklar. Tadqiqotlar natijalari va muammolar* (2 soat).

**4-amaliy mashgʻulot.** Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asr davri arxeologiyasini masalalari: natijalar – yutuqlar – muammolar (2 soat).

**5-amaliy mashgʻulot.** Oʻrta Osiyoning oʻrta asrlar davri arxeologiyasi masalalari. *Asosiy yodgorliklari. Ularning umumiy tasnifi. Yangi tadqiqotlar. Xalqaro turizm muammolarida muzeyifikatsiya masalalari.* (2 soat).

**6-amaliy mashgʻulot.** Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologiya sohasida xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasi. Arxeologiya sohasida *Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi qonunlar va qarorlar* (2 soat).

**OʻQITISH SHAKLLARI**

- Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma'ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
  - davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
  - bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **I. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.**

**“Keys-stadi” metodi** «Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqyea- hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima- natija (What).

**Keys.** Afrika qit'asida dastlabki ibtidoiy odamlar paydo bo‘ldi. Ular asta-sekinlik bilan yer yuzining boshqa xududlariga tarqala boshladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Dastlabki ibtidoiy odamlarning Afrika qat'asidan migratsiya qilishi yer yuzida tarqalashining sabablari nimalardan iborat.

### **“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>➤ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>➤ axborotni umumlashtirish;</li> <li>➤ axborot tahlili;</li> <li>➤ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ individual va guruhda ishlash;</li> <li>➤ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>➤ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>➤ har bir yechimning</li> </ul>

	imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ➤ muqobil yechimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	➤ yakka va guruhda ishlash; ➤ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ➤ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ➤ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

### **“Blits – so‘rov” usuli**

“Blits–so‘rov” usulidan foydalanishning maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma'lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni, tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

O‘tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot, bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o‘rganish zarurligini aytadi.

2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi “Yakka baho” bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.

3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so‘raydi. Ular hamfikirlikda tarqatma materialdagi “Guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.

4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o‘qituvchi harakatlar ketma–ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi va talabalar “To‘g‘ri javob” bo‘limiga raqamlarni yozib chiqadilar.

5. O'qituvchi "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlar bilan "Yakka baho" va "Guruh bahosi" bo'limidagi raqamlarni solishtirib, katta– kichikligini ayirib, farqini chiqarib, "Yakka xato" va "Guruh xatosi" bo'limlariga yozishlarini so'raydi.

6. O'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi va ularni alohida sharhlaydi.

7. Talabalar tarqatma materialda berilgan ballar asosida o'z bahosini chiqaradilar va ular jurnalga qayd qilinadi.

Mashg'ulot yakunlangach, o'qituvchi mashg'ulotni o'tkazish jarayonida talabalarning va guruhlarining faoliyati to'g'risida o'z fikrini bildiradi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Tarix fanlari ichida aynan arxeologiya birinchilardan bo'lib matematik usullar va axborot texnologiyalariga murojaat etgan fan sohalardan biri hisoblanadi. Nima uchun tarix fanlari ichida aynan arxeologiya birinchilardan bo'lib matematik usullar va axborot texnologiyalariga murojaat etgan fan sohalardan biri hisoblanadi?

2. 1936 yilda esa Jey Barnes va Alfred Vinsent Kidder tomonidan paleolit industriyasini o'rganishda statistik usullar qo'llanilganligi xaqida ma'lumot bering?

3. XX asrning 50-yillarida Breynerd va Robinson tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa arxeologik muammolarni matematik shakllantirish va yechish yo'llarini ko'rsatib berganligini tushuntirib bering?

### **Insert texnikasidan foydalanish qoidasi**

1. Ma'ruza matni o'qing va uning hoshiyasida quyidagi belgilarni belgilang:

V – mavjud bilim (axborot)ga mos keladi

+ (plyus) – yangi axborot hisoblanadi

- (minus) – mavjud bo'lgan bilimga mos kelmaydi

? – tushunarsiz/aniqlash talab qilinadigan/ qo'shimcha axborot

2. Olingan ma'lumotlarni quyidagi jadval ko'rinishda bir tizimga keltiring:

Mavzu savollari	v	+	-	?
1				
2				
3				
4				

**Mavzuni jonlantirish uchun savollar**

1. GAT atamasining ta'rifini bilasizmi?
2. Arxeologiyada geografik axbrot tizimining qo'llanilishi xaqida ma'lumot bering?
3. GAT qo'llaniladigan fan sohalari xaqida ma'lumot bering?

## Arxeologiyada matematik usullarning qoʻllanilishi


XX asrning 20-yillaridan boshlab rus arxeologlari tomonidan tadqiqotlar jarayonida taxminiy statistika va geometriya usullari qoʻllanila boshlandi

XX asrning 40-yillaridan boshlab Amerikalik arxeolog olimlar ham oʻz tadqiqotlarida matematika usullarni qoʻllay boshlashdi.


XX asrning 50-yillarida Breynerd va Robinson tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar esa arxeologik muammolarni matematik shakllantirish va yechish yoʻllarini koʻrsatib berdi.

### **Pinbord texnikasi**


(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska)  
muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va  
guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda  
yagona yoki aksincha qarama-qarshi  
pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi



O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini  
bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy  
xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi)



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng  
optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2  
ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va  
doskaga mahkamlaydilar



- Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:
- 1) Yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
  - 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
  - 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
  - 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
  - 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### **“Blits – so'rov” usuli**

“Blits–so'rov” usulidan foydalanishning maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma'lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o'zgalar fikrini

hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni, tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

O‘tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot, bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o‘rganish zarurligini aytadi.

2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi “Yakka baho” bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.

3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so‘raydi. Ular hamfikirlikda tarqatma materialdagi “Guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.

4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o‘qituvchi harakatlar ketma–ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi va talabalar “To‘g‘ri javob” bo‘limiga raqamlarni yozib chiqadilar.

5. O‘qituvchi “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlar bilan “Yakka baho” va “Guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlarni solishtirib, katta–kichikligini ayirib, farqini chiqarib, “Yakka xato” va “Guruh xatosi” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi.

6. O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tushuncha beradi va ularni alohida sharhlaydi.

7. Talabalar tarqatma materialda berilgan ballar asosida o‘z bahosini chiqaradilar va ular jurnalga qayd qilinadi.

8. Mashg‘ulot yakunlangach, o‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida talabalarning va guruhlarining faoliyati to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.



**Arxeologik davrlashtirish**  
(“blits-so‘rov” uslubi )

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javobi	Yakka xato	Yakka baxo	Davrlar nomi
					Mezolit
					Ilk temir davri
					Bronza
					O‘rta asrlar davri
					Neolit
					Eniolit
					Antik
					Ashel
					Arxaik
					Olduvay

6-5 to‘g‘ri javob "qoniqarli"

8-7 to‘g‘ri javob "yaxshi"

9-10 to‘g‘ri javob "a'lo"

**II. Nazariy mashg‘ulot materiallari**

**1-MAVZU:Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi**

***PEXA:***

- 1.1. Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi
- 1.2. O‘rta Osiyoda antropogenez jarayoni masalasi.
- 1.3. Zamonaviy ilmiy nazariyalar..

**Tayanch iboralar:** O‘rta Osiyo, arxeologiya, dolzarb, fan, inson, jamiyat, tarix, ilmiy, zamonaviy, nazariya.

**1.1. O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganishning zamonaviy bosqichi.**

O'zbekiston mustaqilligi davri 1991 yildan boshlanadi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yilda Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlari, Buyuk ipak yo'li tarixini keng tadqiq qilinishi yuzasidan olib borilgan ishlar arxeologik tadqiqot ishlarining yanada jonlanishiga sabab bo'ldi. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlik samarali bo'lmoqda. Yapon olimlari Surxondaryo xududida, Avstriya olimlari Qoralpog'iston xududida, Rossiya olimlari Xorazm va Toshkent xududlarida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Hozirda O'zbekiston arxeologiyasini o'rganish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitetlar, pedagogika institutlari va turli bo'limlar shug'ullanmoqdalar.

So'nggi o'n yillikda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni qayta ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa yodgorliklarni muhofaza qilish ishlariga ancha samarali ta'sir ko'rsatmoqda. XX asrning 90- yillarida yodgorliklarning 7216 tasi hisobga olingan. Shulardan 1595 tasi me'moriy yodgorliklar, 3106 tasi mahobatli san'at asarlari, 2115 tasini arxeologik yodgorliklar tashkil etdi. Ulardan 1831 tasi

respublika miqyosidagi davlat muhofazasiga olingan bo'lib, 513 tasi me'moriy obidalar, 98 tasi mahobatli san'at asarlari, 1213 tasi arxeologik va 27 tasi tarixiy yodgorliklardir. Bunday yodgorliklar ayniqsa, Samarqand ( 997), Buxoro (804) , Qashqadaryo (592), Toshkent (562), Farg'ona (512) viloyatlarida ko'p. Respublikamizdagi arxeologik yodgorliklarni saqlash bugungi kunda qonun 2009 yil 16iyunda qabul qilingan. U Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilishi va ulardan foydalanish to'g'risida deb nomlanadi. Unda arxeologik ob'ektlar davlat tomonidan muxofaza qilinini qonunlashtirilgan.

Bu mamlakatimiz butun hududi qadimiy madaniyat va sivilizatsiya o'chog'i bo'lganligidan dalolat beradi.

Arxeolog olimlar O'.I.Islomov va K.A.Kraxmallar O'rta Osiyo mintaqasining o'ziga xos geologik tuzilishini, ya'ni tog'lik, adirlik va pasttekisliklardan iborat ekanliini hisobga olib, undagi geotektonik va geomagnit hodisalarni radiomagnit metodlari orqali o'rgandilar. Natijada

olimlar pasttekisliklardagi ximiyaviy o'zgarishlar tog'lik xududlarga nisbatan sekin kechishini isbotladilar va paleolit davri yodgorliklari uchun ilgari belgilangan sanalarni 500-600 ming yilga qadimiylashtirdilar. Bu esa, jahon miqyosida katta yangilik bo'ldi.

Arxeologik ilmiy tadqiqot ishlarining ikkinchi bosqichida yodgorlik haqida ma'lumotlar to'planadi. Birinchi, navbatda yodgorlik to'g'risidagi afsonalar va rivoyatlar so'rab surishtirish ishlarini olib boriladi va uning sirtida saqlanib qolgan moddiy ashyolar ilmiy tahlil qilinib, dastlabki xulosalar yasaladi. Keyin yodgorlikning davri va uning bosqichlari, madaniy qatlamlari to'g'risida umumiy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida yodgorlikning bir qismida shurf solinadi. "Shurf" nemischa so'z bo'lib, qazimoq, degan ma'noni anglatadi. Shurf kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat bo'lib, tomonlari ikki va undan ortiq hatto o'n metrdan ortiq bo'lishi mumkin.

Arxeologiya ilmiy tadqiqot ishining oxirgi bosqichida yodgorlikda keng ko'lamli qazishma ishlari olib boriladi. Har qanday stratigrafik qazish ishlari yodgorlikning materik, ya'ni yerning soz tuproq qismiga qadar qazib tushiladi. Ayrim hollardagina planigrafik qazish ishlari olib borilishi mumkin. Planigrafik qazishma ishlari ma'lum davrga oid inshootlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha yodgorlikning yuqoridagi madaniy qatlamlarini o'rganishda foydalaniladi.

Madaniy qatlamlarda insoniyatning turmushi tarzi, xo'jalik va g'oyaviy faoliyati izlari saqlanib qolgan. Bu qatlamlar yillar, asrlar davomida asta-sekin to'planib borgan. Arxeologik yodgorliklarda bir yoki bir necha o'nlab madaniy qatlam mavjud bo'lib, ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrlargacha bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur manzilgohda kishilar hayot faoliyatini qancha davom etishi bilan bog'liq.

Arxeologlar kundalik tadqiqot ishlarining natijalarini qayd qilib boradilar. To'plangan ashyoviy manbalar tadqiqot ishlarini olib borayotgan muassasa ilmiy laboratoriyasida qayta ishlanadi. Dastlab topilmalarni muhofazalash va tiklash ishlari bajariladi. Keyin ular turlar bo'yicha ajratilib, ilmiy tahlil etiladi va qazishma ishlari davomida yozma qaydlari bilan umumlashtirilib mazkur

yodgorlikning ma'lum hudud tarixini ochib berishidagi ahamiyati masalalari bayon qilinadi. Ilmiy tadqiqot ishlari yakuning tafsilotlari tadqiqotchi tomonidan tegishli ilmiy muassasaga yozma hisobot beriladi.

Arxeologiyada qadimgi davrlar tarixi tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi. Arxeologiyada bu "ekofakt" va "artefakt" tushunchalari bilan ishlatiladi.

O'rta Osiyo hududida ham ashel davriga oid o'ndan ortiq makonlarda arxeologik qazish ishlari amalga oshirilgan. Ulardan Selengur (Farg'ona vodiysi), Ko'lbuloq (Toshkent), Qoratov I va Lohutiy I (Janubiy Tojikiston), Janish va Dostiq (Janubiy Qozag'iston) kabi yodgorliklar muhim ahamiyatga ega. Ularning sanasi mutlaq davrlashtirish asosida mil.av. 700-200/150 ming yilliklar doirasida sanalanadi. Seleng'ur makonida Ikkalasidan ham toshqotishmadan yasalgan mehnat qurollari topilsada, Lohutiy I nisbatan ancha rivojlangan madaniyatga ega. Hozirgi kunga kadar O'rta Osiyo hududidan ashel davrga oid yigirmaga yaqin osik turdagi va g'or-makonlar aniklanib ularning ko'piligida arxeologik kazish ishlari olib borilmokda.

Selengur makoni Oloy tizmasidagi Haydarkon degan joyda joylashgan. Bu yodgorlik dastlab 60-yillarda o'rganilgan 80-90 yillarda arxeolog olim O'. Islomov va uning shogirdi K.Kraxmallar tomonidan davom ettirilgan yodgorlikda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Uninig madaniy qatlamidan ko'plab tosh qurollari, havon suyaklari bilan birgalikda eng qadimgi odamlarga tegishli suyaklar topilgan. Suyaklar bosh chanoqning yuqori qismi, olti dona tish va yelka suyak bo'laklaridan iborat bo'lgan. Bu yerdan jami 1417 dona tosh qurollari topilib, shundan 852 tasi uchrindi, 306 turli tosh qurollari va 38 tasi nukleuslardan iborat. Tosh qurollari har xil nukleus, uchrindi, bir tomoni urib uchirilgan chopper va boshqalardan iborat. Topib o'rganilgan suyaklar yirtqich hayvon ayiq, buri, yovvoyi cho'chqa, buqa, tur, ot, arxar, bug'i, nasorglarnikini tashkil etadi. Bu ashel davrining noyob yodgorliklaridan biridir.

Ep shari yuzasining yarmidan ko'pini batial va abissal terrigenli, organogenli, xemogenli va vulkanogenli cho'kindilar egallab yotadi. Shelflarda

shakllanadigan choʻkindilar talaygina kam maydonlarda rivojlanganlar. Dengiz choʻkindilari ichida suzib yuruvchi muzlar va aysberglar tomonidan keltirilgan materialdan hamda shelfli, togʻli va qoplama muzliklardan hosil boʻlgan glyasial-dengiz (muzli - va muz- dengizli) yotqizilari alohida ahdmiyatga ega. Xuddi shu choʻkindi tiplari yevrosiyo va Shimoliy Amerika atroflarini oʻrab olgan hamma shimoliy dengizlarda va Antarktida atrofida janubiy dengizlarda hamda Subtropik yevrosiyo, Kanala va Alyaska tekisliklarida keng tarqalgan. Bu choʻkindilar gil, suglinka, koʻpincha zich, noaniq-qavatlashgan, oʻzida shagʻal, sheben, gʻoʻlatosh, valuna va palaxsa toshlardan tashkil toptan. Quruqlikda ular morenalarga qabul qilinadi, shuning uchun ular morenasimon deb nom oldilar.

Yotqizilarning uchta asosiy kimyoviy, organik va lassi turda klassifikatsiya qilinadi. Bulardan birinchi ikkitasi koʻproq geoarxeologiyaga tegishli hisoblanadi. Lasti yotqizilarning eng koʻp tur hisoblanadi. Ular tashkil topgan qoya parchalaridan, boshqa yotqizilardan yoki tuproq moddiyalaridan yaʼniki eroziyaning tarixi tasviri, koʻchishi va saqlanishidan iborat. Koʻpchilik lasti yotqizilarning shamolga oʻxshagan (masalan qum tepaliklar), suv yoʻllari (masalan daryochalar, dengiz boʻylari) va gravitatsiya (inqiroz, koʻchish, yemirilish) vositalar yordamida saqlab qolinadi.

Inson qadimdan oʻzini xayvonot va oʻsimlik dunyosi bilan bogʻliqligini tushunib yetgan. Bu tushuncha ilk diniy eʼtiqod va urf-odatlar bilan bogʻliq xodisalarda tabiatning inson tomonidan oʻzlashtirila boshlanganligida shakllanadi. Bunda madaniyat taraqqiyotining ekologik omillariga eʼtibor berish lozim.

Ep shari yuzasining yarmidan koʻpini batial va abissal terrigenli, organogenli, xemogenli va vulkanogenli choʻkindilar egallab yotadi. Shelflarda shakllanadigan choʻkindilar talaygina kam maydonlarda rivojlanganlar. Dengiz choʻkindilari ichida suzib yuruvchi muzlar va aysberglar tomonidan keltirilgan materialdan hamda shelfli, togʻli va qoplama muzliklardan hosil boʻlgan glyasial-dengiz (muzli - va muz- dengizli) yotqizilari alohida ahdmiyatga ega.

Xuddi shu choʻkindi tiplari yevrosiyo va Shimoliy Amerika atroflarini oʻrab olgan hamma shimoliy dengizlarda va Antarktida atrofidagi janubiy dengizlarda hamda Subtropik yevrosiyo, Kanala va Alyaska tekisliklarida keng tarqalgan. Bu choʻkindilar gil, suglinka, koʻpincha zich, noaniq-qavatlashgan, oʻzida shagʻal, sheben, gʻoʻlatosh, valuna va palaxsa toshlardan tashkil toptan. Quruqlikda ular morenalarga qabul qilinadi, shuning uchun ular morenasimon deb nom oldilar.

Yotqiziqlar uchta asosiy kimyoviy, organik va lassi turda klassifikatsiya qilinadi. Bulardan birinchi ikkitasi koʻproq geoarxeologiyaga tegishli hisoblanadi. Lasti yotqiziqlar eng koʻp tur hisoblanadi. Ular tashkil topgan qoya parchalaridan, boshqa yotqiziqlardan yoki tuproq moddiyatlardan yaʼniki eroziyaning tarixi tasviri, koʻchishi va saqlanishidan iborat. Koʻpchilik lasti yotqiziqlarning shamolga oʻxshagan (masalan qum tepaliklar), suv yoʻllari (masalan daryochalar, dengiz boʻylari) va gravitatsiya (inqiroz, koʻchish, yemirilish) vositalar yordamida saqlab qolinadi. Lasti yotqiziqlarning odatiy misollari (xuddi komponentlar hajmining pasayishiga asoslangan) qum, loyqa va gil. Geologik maʼlumotlarda qoyalar turlari adirliklar, qum uyumlari va balchiq uyumlaridir. Vulqonli lasti parchalari vulqon kullari, boʻlaklari, qoldiqlaridan iborat boʻlsa, pyrolasti oqim boʻlaklari lasti yotqiziqlar deb tushuniladi. Qisqasi, ular birmuncha gʻayrioddiy geoarxeologik kontekstlardir. Shuningdek, ular vulkanik hududlar bilan chegaralangan<sup>1</sup>.

Shunga qaramay ular arxeologik manzilgohlarning shakllanishi va stratigrafiyasidagi muhim aspektdan tashkil topgan. Arxeologik vaqtda misollar tasvirlash uchun makon hisoblanadigan Pompey taxminan 4mli vulkanli lasti boʻlagi (tefra) bilan oʻralagan va vulqon quyindisi, vulqonli qum, lapilli (2-64mm) va kul (2 mm) dan iborat. San-Salvadora, yeren manzilgohida bir xil turdagi turar joylar aks ettirilgan, yaʼni tuzulishi va qishloq xoʻjalik yerlari bir necha metr tepa ostida koʻmilib ketgan edi. Sharqiy Afrika, Turkiya, Jordon Rift va Jeorjiyadagi manzilgohlardan topilgan golotsen va pleystotsen davrining stratigrafiyasi va sanalarida vodiylarda saqlanib qolgan vulqon lasti topilmalari asosiy rol oʻynaydi. Olduvay Gorge, Gobi Fora, Gesher Benot Yakov va

Dmanise arxeologik va insoniyat yashab qolgan manzilgohlardan bir nechtasi bo'lib hisoblanadi.

Golotsen – muzlashdan keyingi davr. Muzlash davri tugashi bilan hozirgi davr iqlimi shakllanadi. Muzliklar shimolga chekinib, turli kengliklarga xos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllanadi. Hozir 14 ming yildan buyon issiq iqlim xukm surmoqda. Sibir, Shimoliy Amerika,

<sup>1</sup> John Barrett. *The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology)* edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

Shimoliy yevropa abadiy muzliklari, subarktik o'simliklari hududlari yuzlab kmlarga shimolga chekinadilar.

Golotsen faslining boshi er avv 8-4 ming yilliklar Atlantik optimum- (mo'tadil) deb ataladi. Harorat ancha issiq va seryomg'ir bo'lgan. Sahroda ham yiligi 300-400 mm yomg'ir yog'gan. Afrikani markazidagi Chad ko'li kengayib Kaspiy dengiziga yetgan. Arxeologik jixatdan bu davr neolitga to'g'ri keladi. Bu davrda dehqonchilik bilan chorvachilik rivojlanib, ishlab chiqarish shakllanadi. Bu davrda shimoliy mintaqalarda qurg'oqchilik bo'ladi. Lekin 3 ming yillikning oxirida qurg'oqchilik xukmron bo'ladi. U yerda ham bir zamonlar Nil bilan tenglashadigan daryo oqqan, ularning qirg'oqlarida tosh qoyalarga chizilgan petrogliflar topilgan<sup>2</sup>.

Eng qadimgi petrogliflar er avv 6-7 ming yillikka oid bo'lib, fil, jirafalar tasviri, hayvonlar uyuri ham uchraydi. Bu hayvonlarni ovlovchi aholining qiyofasi negroidlarga o'xshaydi.

- 1) Neolit davri er.avv. 4 ming yillikka oid suratlar, bu yerda chorvachilik manzarasini ko'rishimiz mumkin.
- 2) Er. avv. 1200 yil otlar tasviri uchraydi. Ot Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida xonakilashtirilgan.

Er avv 2 ming yillikning 2 yarmida va undan oldin Yamnaya, Katakombnaya, Andronovo madaniyatining vakillari chorvador aholisi otboqarlik sa'natini dunyoga tarqatadi.

Yamnaya – O‘ra, Yorma go‘r,

Katakombnaya – Laxad,

Andronovo – Yog‘ochdan qabr qilgan.

Paleograflarning kuzatishiga ko‘ra Qizilqum manzarasi mil. avv. 4 ming yilliklarda yashnagan joy bo‘lgan. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon sersuv bo‘lib, Kaspiyga quyilgan. Bu mintaqalarda yovvoyi xo‘kiz ( tur ) doimiylik iqlimiga moslashgan hayvonlar yurgan.

2 John Barrett. *The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology)* edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

Janubiy Turkmanistondagi Kopetdog‘ sersuv bo‘lib, bu yerda Joytun madaniyati shakllanadi. Joytun shimoliy xududda keng ko‘lamda topilgan Kaltaminor madaniyati bilan chegaradosh bo‘lgan. Kaltaminor madaniyatining ovchi, termachilik axolisi nam shimoliy mintaqalarga chekinib o‘rta kenglik o‘zlashtirildi. Natijada g‘arbiy yunalishda sharqiy yevropa xududiga yetib boradi.

Buxoro vohasining g‘arbiy hududlaridan g‘arb tomon ko‘chib ketgan Zarafshon daryosining yetaklari topilgan. Asosiysi oyoq og‘itma deb ataladi. Uning qirg‘og‘ida 80 metrlik jar yoqasida er avv 4 ming yillik oxiriga oid Kaltaminor madaniyatiga mansub manzilgox topilgan. Bir zamonlar bu manzilgox Zarafshon daryosi yetagida hosil bo‘lgan ko‘l atrofida paydo bo‘lgan. 6 ming yil mobaynida yuz bergan tiktonika o‘zanni 80 metrga o‘sib ketgan.

Hozir ham O‘rta Osiyo maydoni seysmologlarning xabariga ko‘ra yiliga o‘rta hisobda 1 smga o‘sib bormoqda, jumladan, Orol dengizini tubi ham.

Qo‘y bilan sigir birinchi bor Yaqin Sharqda xonakilashtiriladi. Ikki o‘rkachli tuya aynan Kaltaminor madaniyati vakillari tomonidan xonakilashtirilgan.

yevropada ham 4 ta salqin nam fasllar aniqlangan, bularning sanasi er avv 3700-3100, 2600, va 2 chi ming yilliklarga to‘g‘ri keladi. Asosiy muzlash g‘arbiy yevropada 3 ming yillik boshiga to‘g‘ri keladi. Bu faslda qurg‘oqchilik



avjiga chiqadi. Ko‘p madaniyat markazlari talofatga uchraydi. Shuning natijasida Markaziy Osiyoda BMAK madaniyati ( Baqtriya, Marg‘iyona ) paydo bo‘ldi.

Sopollitepa, Jarqo‘ton, Gonur, Togolok, Dashtli 3 va boshqa ilk shaharlar aynan shu ko‘chishning oqibatida O‘rta Osiyoga Yaqin Sharq madaniyatini olib kiradi. Arxeologik ma.daniyatlarning o‘zgarishlari, yozuv shu yerda yozuv bor.

Misol: qishda Dunay daryosini muz qoplab uni ustidan ot va piyodalar o‘tib yuradi. Bir zamonlar Janubiy Arabistonda Sabiy podsholigi bo‘lgan,

o‘sha davrga oid hozir qurib yotgan daryoda katta er avv 9 asrga oid to‘g‘on topilgan, 2chi to‘g‘onning bo‘yi 600 metr.

Qadimiy Xitoy, Misr, yevropa manbalarda ham er avv 3 ming yillikning 1 yarmida iqlim o‘zgarib turgan.

Kaspiy dengizining sathi hozirgidan 80 metr baland bo‘lgan. Er avv 7 ming yillikda esa uning sathi hozirgidan 20 metr pastda bo‘lgan.

yevropa hududlari golotsenning issiq faslida Alp tog‘larining o‘rmonlari chegarasi hozirgiga nisbatan 1 km baland bo‘lgan<sup>3</sup>.

Atlantik Plyuvial davrida O‘rta Osiyo hududi harorati issiq bo‘lgan mintaqasida ko‘proq yomg‘ir yoqqan. Shu davrda O‘rta yer dengizining sharqiy hududlaridan yevropaga , shimoliy Afrikaga , janubiy Osiyoga megalitlar madaniyati tarqala boshladi. ( Dolmek, Mekgyur, Kromleklar ).

Megalit – ulkan toshlardan qurilgan inshootlar.

Sibir hududlarida mamontlar golotsen davrining boshida 12 -10 ming yil oldin qiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda qurg‘oqchilik xukm suradi. Issiqko‘l ko‘lining tranzgressiyasi kuzatiladi. Yaqin sharq, O‘rta sharqni sug‘orib turgan siklonlari shimolga siljiydi.

Golotsen davrida uning boshida ( 13-6 ming yillik ) muzliklarni erishi natijasda jaxon okeanlarining satxi har ming yil mobaynida 9 smga ko‘tarilgan. yevropa hududlarida Qadimiy golotsen faslida qurg‘oqchilik yuz bera boshlaydi. Angliya yevropadan ajrab qoladi, Alyaska Kamchatkadan ajrab

qoladi. Oxirgi 4 ming yilda okean sathi 1 metrdan 4 metrgacha ko'tarilib kelmoqda.

Ibtidoiy jamiyat tarixidan boshlab inson tabiatdan o'z maqsadlarida foydalangan (o'rmon, daryo, ko'llar o'rab turgantevarak atrofdagi mavjud xom ashyo, o'simliklar, meva, xayvonot dunyosi, tabiiy oziq-ovqat zaxiralari o'zlashtirilgan). O'zlashtiruvchi xo'jaliklar rivojlangan davrlarda o'rug' va qabila a'zolari muayyan xududda istiqomat qilgan. Ularning xududiy joylashuvi qon – qarindoshlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, u yoki bu

3 John Barrett. *The Emergence of Civilisation Revisited (Sheffield Studies in Aegean Archaeology)* edited by John C. Barrett and Paul Halstead. Sheffield, 2005.

tumanda faqat qarindosh urug' vakillari istiqomat qilgan. O'zlashtirilgan xududlar o'rtasida shartli chegaralar mavjud bo'lgan.

Etnogeografiya axolining xududiy joylashuvi xususiyatlarini, urug', qabila, etnik guruxlar, elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va turli tarixiy davrlarga xos jamiyatga tabiiy-geografik omillarning ta'siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning axamiyatini o'rganadi. Geografik sharoit insonning mehnat usullari moddiy madaniyat, turmush tarzi va umuman xayotiga ta'sir qilgan<sup>4</sup>.

Qadimgi davrlarda jamoalar turlicha tabiiy sharoitda joylashishi va atrof-tevarakga moslashishi tufayli ularning xayotida turli shakllardagi xujalik madaniyatlar vujudga kelgan edi. Misol tariqasida dengiz, ko'llar, daryolar atroflarida joylashgan qabilalar xayotida baliqchilik, dasht, tog' oldi va tog'li tumanlarda joylashgan axolisida ovchilik ustunlik qilgan edi yoki baliqchilik, ovchilik va termachilik kompleks tarzda rivojlangan. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning (dexqonchilik, chorvachilik) shakllanishiga issiq iqlim, xosildor yerlar, yovvoyi boshoqli o'simliklar va mayda shohli xayvonlarning tabiatda mavjudligi asos bo'lgan. Dehqonchilik sovuq iqlim yerlarda yoki qalin o'rmonlar, butazorlar egallab olgan xududlarda va cho'llarda rivoj topmagan.

Xo‘jalik – madaniy tiplar jamoalarda ustuvor ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, muayyan urug‘, qabila, etnik guruhlar va elatlarning tevarak – atrofdagi aloqa xususiyatlarini belgilaydi.

Xo‘jalik –madaniy tiplarning ta'rifida uy-joylar, mexnat qurollari, xunarmandchilik maxsulotlari, uy-ro‘zg‘or va madaniy buyumlarga e'tibor berish lozim. Xo‘jalik - madaniy tiplarning umumiyliги yaqin geografik muxit bilan bog‘liq bo‘lib, tabiiy sharoit ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot qishloqlarning turmush tarzi, moddiy madaniyati va ma'lum darajada ma'naviy madaniyatga ta'sir qilgan.

Yuqorida aytib o‘tilgandek mazkur masalani o‘rganish jarayonida tabiiy sharoit va iqlim xususiyatlariga e'tibor berish lozim. Misol tariqasida issiq iqlim sharoitida daryo voxalarida dastlab lalmikor dexqonchilik va so‘ng sug‘orma dexqonchilik tarqalgan.

Ko‘p jixatdan xo‘jalik-madaniy tiplarning birligi va o‘zaro bog‘liqligi tarixiy etnografik viloyat yoki tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Ma'lum xududlarda joylashgan, uzoq tarixiy davrlar mobaynida o‘zaro aloqalarda bo‘lib, umumiy moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratgan axoli guruxlari tarixiy – madaniy viloyat dirasida bir odatlar, e'tiqodlar, shuningdek til hamda etnik yaqinlik birlashtirgan<sup>5</sup>.

Atlantik plyuviyal davrida O‘rta Osiyo sahrolarida yiliga 250-450 mmga qadar qor yog‘ib turgan, harorat hozirgidan 8-10 gr past bo‘lgan. 3-2 ming yilliklarda iqlim qurib harorat ko‘tariladi. Joyitunni o‘rnini Anov 1 egallaydi. Dashtda eneolit, bronza davriga oid manzilgohlar tashkel topadi. Er avv 2 ming yilliklarda esa O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida BMAK madaniyati shakllanadi. Dashtda esa shimoliy ko‘chmanchi Andronovo madaniyati kirib keladi. Oxirgi 4 ming yil ichida 7 ta nam fasl kuzatilgan. Bular er avv 1900,1300, 760, 20, va eramizni 920,1120, 1700 yillardan boshlangan. Bu fasllar natijasida o‘troq dehqonchilik goh kengayib goh torayib borgan. Xorazm eks-si Sariqqamish atrofida hayot kechirgan. Bu hududda suvi er avv 2 ming

yillikda quriydi. Er avv 8-7ming yilliklarda O‘zboydan Sariqqamishga yana suv kela boshlaydi va bu hududda saklarga mansub Quysisoy manzili topilgan.

O‘zbekistonda ilk mezolit davriga oid manbalar XX asr boshlarida topilgan. Mezolit davrini sistemali o‘rganishni A.P.Okladnikov boshlab bergan. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko‘p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg‘onada, Qizilqum, Pomirda mezolit yodgorliklari ko‘plab topilgan.

A.M.Mandelstam, X.Yu. Yusupov, Yu.A.Zadneprovskiy, O‘.Islomov—Farg‘onada, ye. Bijanov, V.Yagodin, A.Vinogradov, G.Xodjaniyozovlar Ustyurtda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Lekin O‘zbekiston mezoliti boshqa davrlarga nisbatan kam o‘rganilgan. O‘.Islomov shu kunga qadar O‘zbekiston hududida o‘rganilgan yodgorliklarni uchta —Farg‘ona, Toshkent va Surxandaryo territorial xususiyatlarga bo‘ldi.

**Qo‘shilish makoni** Toshkentning g‘arbida qadimgi Bo‘zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. U yerdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg‘ichlar va hych bir makonda uchramaydigan uchburchak shaklidagi qurollar topilgan. Qo‘shilishning madaniy qatlamidan topilgan mazkur qurollar so‘ngi tosh davri qurollariga nisbatan o‘zining ancha ixchamligi va qurol turlarining xilma–xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerdan topilgan nukleuslar va qirg‘ichlar Farg‘onadagi Obishir I, Y, Achchiko‘l va Machaydan topilgan nukleuslar va qirg‘ichlarga o‘xshab ketadi. Lekin Qo‘shilishdagi qurollar ancha qadimiy arxaik xususiyatga egadir. Qo‘shilishdan topilgan qurollarda o‘ziga xoslik ham bor, ya'ni bu yerda geometrik shaklda yasalgan qurollar uchramaydi. Shuningdek, Qo‘shilishda boshqa makonlarda bo‘lgan pichoqsimon paraqalar topilgan emas. Qo‘shilish qurollarining ba'zilari Yaqin va O‘rta Sharqdagi Shanidavr, Paligavr, Gari-Kamarbanddan topilgan qurollarga o‘xshab ketadi. Farg‘ona vodiysida va uning janubidagi tog‘li hududlarda mezolit davri makonlar ancha ko‘p topilgan. Shular jumlasiga, Farg‘ona vodiysining janubidagi Qatron tog‘idan topilgan Obishir I va Obishir V g‘or–makonlarini kiritish mumkin. Ular miloddan avvalgi IX–VIII ming yilliklarga oiddir.

**Obishir 1 g'or–makoni** Haydarkon shaharchasidan 4-5 km sharqda joylashgan. U yerning madaniy qatlamlaridan mikrolitlar, bigizlar, qirg'ichlar, pichoq qadamlari, nukleuslar topilgan. Ular boshqa joylardan topilgan mezolit davri qurollariga o'xshaydi.

**Obishir V g'or– makoni** esa Obishir 1 dan 200 metrcha g'arbda joylashgan. U yerda 3 ta madaniy qatlam aniqlangan. U yerdan topilgan mehnat qurollarining ishlanish texnikasi Obishir 1 ga o'xshaydi. U yerning quyi madaniy qatlamlaridan oq–qora va kul rang chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar– paraqalar, pichoq qadamlari, qirg'ichlar, keskichlar, teshgichlar, o'roq–randalar va turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shuningdek bu yerdan yovvoyi hayvonlarning parchalangan va sindirilgan suyaklari ham topilgan.

Keyingi yillarda Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg'ona yerlaridan mezolit davri makonlari ko'plab topilgan. Markaziy Farg'onadan bu davriga oid 100ga yaqin joydan makonlar topilgan. Ulardan Ittak qal'a, Sho'rko'l, Achchiko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambor, Bosqumlar diqqatga sazovordir. U yerlardan har xil shaklda retushlangan va retushlanmagan nukleuslar, qirg'ichlar, paraqalar, mayda geometrik qurollar topilgan. Bu yerda ko'proq mayda nukleuslar uchrab, yirik nukleuslar deyarli uchramaydi. Daryo toshlaridan olingan uchrindilar ham bor. Bu yerdan topilgan mehnat qurollari qora, yashil, jigarrang chaqmoqtosh, slanets va boshqa toshlardan yasalgan. Bu yodgorliklar ochiq joydagi makonlar bo'lib, madaniy qatlamlar yo'q. Tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Farg'onadagi ilk va so'nggi mezolit davri makonlar o'sha vaqtning o'zidayoq tashlab ketilgach, buzila boshlagan. Hozirda bu joylar keng qum barxanlari ostida qolgan. Lekin mezolit va neolit davrlarida bu yerlarda ko'llar bo'lgan. Ibtidoiy odamlar shu ko'l sohillarda yashaganlar. Termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Farg'onada faqat tosh davri yodgorliklar mavjud. Boshqa davrlarga oid yodgorliklar va madaniy qatlamlar yuq.

Tadqiqotchilar Markaziy Farg'onadagi mezolit davri yodgorliklarini 2 guruhini aniqlab, uning rivojlanishidagi ilk va so'nggi bosqichini aniqladilar. Ilk mezolit

davri miloddan avvalgi IX—VII yilliklarga oid bo‘lib, unga Ittak qal'a 2, Achchiko‘l 1,7, Yangi qadam 1,2 va Toypoq 1 makonlari kiradi.

Markaziy Farg‘onaning so‘nggi mezolit davri miloddan avvalgi VI ming yilliklarga mansub. Unga Achchiko‘l, Bekobod 3,4, Sho‘rko‘l 1, 2, Madyor 11, Zambar 2, Toypoq 3,5,7 va boshqa joy makonlarni kiritish mumkin.

**Mezolit davri xronologiyasi masalalari.** Mezolit davri (yunon. mezos-o‘rta, litos-tosh) - o‘rta tosh davri bo‘lib, ilk bor Allen Braun tomonidan (1883) paleolit va neolit davrlari oralig‘i tosh qurollari majmuasini belgilash maqsadida qo‘llanilgan. Rossiya arxeologiyasida dastlab M.Ya. Roginskiy tomonidan (1928) ishlatilgan. hozirgi paytda ushbu atamaning ekvivalenti epipaleolit va goloen davri paleoliti kabi atamalar ham ayrim horijiy mamlakatlar arxeologiyasida qo‘llanilib kelinadi.

yevrosiyo hududlarida arxeologik tadqiqot ishlari yutuqlari hozirgi paytda mezolitning davri va sanalini aniqlashga asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunga ko‘ra mezolitning nisbiy (makonlar stratigrafiyasi-madaniy qatlam) va mutloq davrlashtirish asosida mil. avv. XII-VII/VI ming yilliklar doirasida belgilangan. Bu sana bevosita Old Osiyo, xususan, O‘rta Osiyo hududlari uchun mos keladi. yer yuzining boshqa hududlarida, xususan, yevrosiyaning shimoliy ayrim janubiy (Osiyo) mintaqalarida mezolit davri an'analari mil.avv. V/IV ming yilliklarga qadar ham davom etganligi ma'lum.

So‘nggi paleolit davrining Oxirgi bosqichlarida er yuzi tabiiy sharoitida boshlangan muhim o‘zgarishlar mezolit davriga kelib muzlik erib, issiq iqlim sharoitining qaror topishi bilan yakun topadi. Must'e davrining Oxirgi bosqichi va so‘nggi paleolit davrlarida er sharining shimoliy qismini qoplagan so‘nggi vyurm (valday) muzligi erib, er yuzida global isish boshlanadi va pleystoen goloen bilan almashadi. Zamonaviy qadimgi iqlimshunoslik fani ilmiy yutuqlariga asosan muzlik erishining boshlanishi mil. avv. 14 ming yillikdan boshlanib, ko‘pchilik olimlarning ilmiy farazlariga ko‘ra mil. avv. 8300 yillarda batamom erib tugaydi.

Muzlik davri tugab ob-havo isishi bilan er yuzining flora va faunasida

keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Muzlikdan tozalangan hududlar landshaftlari manzarasi keskin o'zgarib, muzliklar o'rnida daryolar va ko'llar paydo bo'ladi.

Muzlik oldi hududlarida yashovchi sovuq iqlim sharoitiga moslashgan mamont, karkidon, qo'ybuqa kabi hayvonlar so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq yashash sharoitlari og'irlashib, muzlik ortidan chekka shimolga chekinishga majbur bo'lishgan va keyinchalik tur sifatida qirilib ketgan. hayvanot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'rniga tez chopar, ziyrak va yakka yashashi mumkin bo'lgan hayvonlar turining ko'payishi paleolit davri ovchilik an'alarining qiyinlashtiradi. Natijada bu turdagi hayvonlarga ov qilish uchun yangi vositalarni ixtiro qilishga zarurat tuqiladi. Bu albatta mezolit davrining buyuk ixtirosi o'q-yoydan foydalanishning boshlanishi edi. Bu esa butun paleolit davrida yirik hayvonlarni butun jamoa a'zolari hamkorlikda hamal usulidagi ov qilishga barham berib, nisbatan kichik va tez harakatlanuvchi hayvonlarni yakka holda ovlash usuliga o'tishga olib keladi.

Bu darda muzlikdan bo'shagan hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yovvoyi eshak o'rmon hududlarida esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan. Muzlik va muzlik oldi shimoliy hududlarida sodir bo'lgan tabiiy o'zgarishlar er yuzining janubiy mintaqalarida unchalik sezilmaydi. Bu erning flora va faunada ham tub o'zgarishlar kuzatilmagan.

So'nggi paleolit davri takomillashgan tosh qurollari mezolit davri qurollarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. yevrosiyoning janubiy mintaqalarida hajmi 1-2 santimetrdan iborat geometrik shaklli tosh qurollarda foydalanila boshlaydi. Sigment, trapeiya va uchburchak shaklli kremen (choqmoq tosh) qurollari hajmi jihatdan ancha kichik bo'lib, ular arxeologiya fanida mikrolitlar (yun. mikros-kichik, litos-tosh), deb nomlanadi. Bunday tosh bo'lakchalaridan odatda qadama sifatida qo'llanilgan. Mikrolitlar odat biror vosita yog'och yoki suyakga qotirilib, kamon o'qi uchi, boshhoqli o'simliklarni o'rish uchun o'roq sifatida foydalanilgan. Shuningdek, teriga ishlov berish kabi nozik ishlarini

bajarishda qurol sifatida ham ishlatish mumkin bo'lgan. Mikrolit texnikasiga asoslangan tosh qurollar dastlab janubiy o'lkalarda aholisi orasida tarqala boshlagan bo'lsa, shimoliy mintaqalarda so'nggi paleolit davri an'anasiga ega bo'lgan plastikasimon (yapaloq shakldagi) tosh qurollardan foydalanish davom etgan. Bu hududlarda mikrolitlar nisbatan keyinroq vujudga keladi. Bu davrda mikrolitlar bilan birgalikda makrolit (yun. makros-katta, litos-tosh)) qurollari, xususan tosh boltalar ham paydo bo'ladi. Bunday qurollarning ahamiyati o'rmon mintaqalari va tog'li hududlarda yuqori bo'lgan. Tosh boltalar yirik toshlarni tekis yorish va sirtini silliqlash asosida amalga oshirilgan.

Mezolit davri tabiiy-geografik o'zgarishlari ibtidoiy davr kishilarining turmush tarzini keskin o'zgarishiga olib keladi. Jamoa a'zolari mahalliy hududlarda tarqagan fauna va florasini hususiyatlaridan kelib chiqib o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllarini tashkil etishib, bu sohada ma'lum ixtisoslashishni keltirib chihargan. Natijada ibtidoiy ajdodlarimiz ovchilik, baliqchilik va termachilik yoki ularning ikki turi bilan shug'ullanib kun kechirishgan.

Dukkakli o'simliklarni termachlashga asoslangan qabilalar boshqoli o'simliklarni madanishlashtirish, ovchi qabilalar esa yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirib, oxir oqibat ilk ishlab chiqarish-dehqonchilik va chorvachilik shakllarining vujudga kelishiga zamin yaratishgan. Bu jarayon nisbatan ilgariroq mezolit davrining o'rtalarida Yaqin va O'rta Sharq hududlarida sodir bo'lgan.

Old Osiyo, xususan, Yaqin va O'rta Sharq hududlari pleystoen davri muzligidan ancha uzoq bo'lib, iqlim sharoiti nisbatan issiq va namgarchilik miqdori yuqori bo'lgan. Bunday sharoit esa hududda boy flora va faunasining qaror topishi uchun imkoniyat yaratgan. Bu o'z navbatida mezolit davri ilgor xo'jalik shakllari va madaniy an'alarining vujudga kelishini ta'minlashi tabiiy edi. Shuningdek, bunday qulay sharoit hududda mezolit an'alarining uzoq davom etmaganligiga sabab bo'lgan.



Yaqin va O'rta Sharq hududlarida mezolit davri qisqa muddat davom etib, ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga juda erta o'tishgan.

### **1.1. Neolit davri ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi.**

**Neolit davri hususiyatlari.** Neolit - (yun. neos-yangi, litos-tosh, yangi tosh asri) o'zoq davom tosh asrining so'nggi bosqichi. Neolit atamasini 1865 yilda ingliz arxeologi Lebbok taklifi bilan arxeologiya faniga kiritilgan. Neolit davrda kishilar jamoasi er yuzining nisbatan kengroq hududlarni egallashib, turli geografik sharoitlarga mos xo'jalik shakllari bilan kun kechirishlariga to'g'ri kelgan. Bu esa xo'jaligi va moddiy madaniyatiga ko'ra o'zaro keskin farq qiladigan madaniyatlarning qaror topishiga olib kelgan. Neolit davrida tabiiy sharoiti qulay bo'lgan Old Osiyo hududida mezolit davrining oxirlaridayoq namoyon bo'la boshlagan ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari vujudga kelgan bo'lsa, nisbatan sovuq o'lkalar aholisi xo'jaligining o'zlashtiruvchi shakllari saqlanib qoladi. Xo'jalik shakllari esa o'z navbatida ularning moddiy madaniyatida ham ma'lum tafavvutlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. yer yuzining barcha hududlaridagi xo'jalik sohasidagi keskin tafovvutlar neolit davri madaniyatlarini belgilashda ayrim noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Neolit davrini belgilashda qanday hususiyatlar asosiy omil bo'lib xizmat qilish to'g'risidagi masala tadqiqotchi arxeolog olimlarning munozaralariga sabab bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilarlar neolit davrini belgilashda xo'jalik va madaniy hususiyatlaridan kelib chiqishni taklif qilishsalar, boshqalar esa mazkur davr uchun xos bo'lgan barcha hususiyatlarni e'tibor olgan holda tadrijiylik asosiy o'rin egallashini ta'kidlashadi. Shu nuqtai nazardan neolit davri xronologik chegarasini er yuzining barcha hududlari uchun ma'lum sanalarni qo'llab bo'lmaydi. Tabiiy sharoiti qulay bo'lgan janubiy o'lkalarda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari, neolit davri hususiyatlari mil. avv.VIII-VII ming yilliklarda, boshqa hududlarda esa kechroq namoyon bo'lib, mil.avv. III-II ming yilliklarga qadar davom etganligini kuzatish mumkin.

Neolit davrida toshga ishlov berish yanada takomillashgan va mukammal usullari vujudga kelib, ularning turi va soni yanada ko'payadi. Bu asosan kremen-chaqmoqtosh ko'p uchraydigan yevrosiyoning shimoli-g'arbiy hududlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Kremen kam uchraydigan janubiy o'lkalar, xususan, O'rta Osiyoning ayrim hududlarida tosh qurollariga ishlov berishning arhaik shakli saqlanib qoladi. Janubiy o'lkalarda mikroлит texnikasi takomillashgan bo'lsa, shimolda toshga ishlov berishning so'nggi paleolit davridan ma'lum bo'lgan "plastinkasimon" usuli saqlanib qoladi. Shimolning o'rmon dashtlarida makrolit, xususan tosh boltalar keng tarqaladi. Yog'och va suyaklarning turli Mehnat qurollari va qurol-yarog'lar tayyorlashdagi muhim xom ashyo sifatidagi ahamiyati yanada ortadi.

Sopol buyumlarining paydo bo'lishi neolit davrining muhim kashfiyotlaridan biri bo'lib, bu ixtiro dehqon jamoalari tomonidan qilingan. Dastlabki sopol buyumlari mahalliy hudud xususiyatlaridan kelib chiqib mato g'oliblarda yoki tasmaimon va arqonsimon usullarda yasalgan. Birinchi holatda tuproq yoki qum solingan mato atrofi loy bilan suvalib yasalgan buyumning ichki tomonida matoning izlari qolgan. Ikkinchi holatda tasma shakliga keltirilgan loy biriktirilib idish xosil qilinadi. Uchinchi holatda arqon shakliga keltirilgan loy aylantirib, idish shakli xosil qilinib, ichki va tashqi tomonlaridan silliqiladi. Sopol buyumlari quritilgandan so'ng sirtiga naqshlar berilgan va pishirilgan. Neolit davrda sopol buyumlarini ochiq olovda pishirishgan. O'troq dehqon jamoalarining sopol buyumlar odatda tabiiy bo'yoqlarda berilgan turli naqshlardan iborat bo'lgan. Shimoliy hudud aholisi ko'p qollarda tasmaimon va arqonsimon usulda yasalgan sopol buyumlari sirtiga o'yma yoki chizma naqshlar berish an'anasi ustun bo'lgan. Ko'pincha eshma arqon shaklida ishlangan dumoloq tagli sopol buyumlar erga botirib qo'yish uchun qulay bo'lgan. Sopol buyumlarning eng qadimgi namunalari Yaponiyadagi mil. avv. IX-VIII ming yilliklarga oid yodgorlik madaniy qatlamlarida uchraydi.

Neolit davrida turli o'simliklarning poyalaridan to'r to'qish paydo bo'lib, chuchuk suvli ko'llarga boy bo'lgan baliqchilik rivojlangan hududlarda ulardan

keng foydalanilgan. hayvon junlaridan matolar tayyorlash, terilarni oshlash va ulardan ustki kiyim tayyorlash dehqon- charvador aholisining qo‘shimcha mashg‘uloti sanalgan.

Xo‘jalikning ishlab chiharuvchi shakliga o‘tish yevrosiyoning janubiy o‘lkalarida iqlim sharoiti nisbatan ancha qulay bo‘lgan mintaqalarda, aniqroq g‘arbiy Osiyo hududida sodir bo‘lishi mumkin edi. hozirgi payda ishlab chiharuvchi xo‘jalik shakllari erta qaror topgan ilk markazlar Yaqin va O‘rta Sharq va Kichik Osiyolardan iborat bo‘lib, bu hudud arxeologiya fani tili bilan “serunum yarimoy hududi”, deb ataladi.

**O‘rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari.** Paleonologik ma'lumotlarga ko‘ra mil.avv VIII-VII ming ming yilliklardan “Lavlakon namgarchiligi”, davri boshlangan. Bu davrda issiq va namchil iqlim sharoiti hukmron bo‘lib, yillik yog‘ingarchilik miqdori 250 dan 450 sm. oralig‘ida bo‘lgan. hozirgi Qizilqum cho‘li hududlari keng yaproqli o‘rmonzordan tashkil topgan bo‘lib, ko‘llarga boy bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida hayvonat dunyosining ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratgan.

Kopetdagning shimoliy yonbag‘irlarida ham shunga o‘hshash tabiiy-iqlim sharoiti mavjud bo‘lib, hozirgiga nisbatan ancha sersuv bo‘lgan. Bu esa dehqonchilik xo‘jaligini rivojlanishi uchun qulaylik yaratgan.

Tog‘ tizmasidan oqib tushayotgan daryo o‘zanlari boy tarkibiga ega bo‘lgan to‘qayzor bo‘lgan. Mazkur hududlardan aniqlangan arxeologik yodgorliklarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qumlik chegarasi hozirgiga nisbatan ancha shimolroqda joylashgan bo‘lgan.

Mil.avv. V ming yillikga kelib iqlim sharoiti quriqlashib boradi. Ishlab chiharuvchi xo‘jalik nisbatan erta shakllangan boshqa bir hudud shubhasiz O‘rta Osiyo hisoblanadi. Janubiy Turkmaniston hududida mil. avv. VII ming yillikning oxirlarida mahalliy Sharqiy Kaspiybo‘yi mezolit davri madaniyati asosida ishlab chiharuvchi xo‘jaligi paydo bo‘ladi.

Bu erda chorvachilikga asoslangan Jebel, dehqonchilikga asoslangan Joytun madaniyatlari shakllanadi. Bir tomondan Turkmanistonning issiq qaroratli tabiiy-geografik sharoitning mavjudligi mezolit davri mahalliy aholisining

ishlab chiharuvchi xo‘jalik shakliga o‘tishlari uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ilk dehqonchilik markazlariga yaqinligi sababli ularning ma'lum ta'siri mazkur jarayonning tezlashishiga ta'sirini o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Joytun madaniyatiga oid yodgorliklarning quyi qatlamlaridan topilgan tosh qurollari ishlanish usuli mezolit davri Sharqiy Kaspiybo‘yi yodgorliklarining yuqori qatlamlaridan topilgan qurollar bilan aynan bir xil. Demak, Sharqiy Kaspiy bo‘yining mezolit davri ovchiligi negizida chorvachilikga asoslangan Jebel madaniyati va termachiligi asosida esa dehqonchilikga asoslangan Joytun madaniyati shakllanganligi shubhasiz.

O‘rta Osiyoning shimoliy hududlari va nisbatan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida xo‘jalikning ixtisoslashgan o‘zlashtiruvchi shakliga ega bo‘lgan madaniyatlar rivojlanib, ushbu xo‘jalik shakli uzoq muddat saqlanib qoladi. Bu o‘z navbatida mazkur hududlarda tabiiy sharoitning qulayligi ishlab chiharuvchi xo‘jalik shakliga o‘tish uchun zarurat qoldirmaganligidan dalolat beradi. Mazkur jarayon zamonaviy paleoiklimshunoslik fanida taxminan mil.avv. VIII-III ming yilliklarda “Lavlakon namgarchiligi” nomi bilan yuritilgan qulay tabiiy sharoit davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yi va Qizilqum hududlarida neolit davri terib termachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga asoslangan Kaltaminor doirasidagi madaniyat, Zarafshonning o‘rta oqimida ovchi va terib termachilikga asoslangan Sazag‘on madaniyati, Farg‘ona vodiysida terib termachilik va baliqchi asoslangan neolit davri jamoalari madaniyatirivojlanishi va O‘zbekiston va Tojikistonning janubiy tog‘ va tog‘ oldi hududlarida termachilik va ovchilikga asoslangan Hisor madaniyatlarining rivojlanishi kuzatiladi.

Umuman, neolit davrida insoniyat tabiatdagi mavjud bo‘lgan tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini o‘zlashtirishdan, ularni sun‘iy ravishda ishlab

chiqarishning xo‘jaligi-dehqonchilik va chorvachilik shakllariga o‘tishadi. Bu jarayonni ingliz arxeologi V.G.Chayld «neolit inqilobi», deb hisoblaydi.

Xo‘jalik sohasidagi yangi yutuqlar keyinchalik yer yuzining barcha hududlariga tarqalgan.

Suriya-Falastin neolit davriga oid ilk o'troq dexqonchilik qishlog'ining o'rni O'lik dengizdan Shimolda Jordan daryosi vodiysida joylashgan Tell as Sulton yodgorligida o'z aksini topgan. Bu yodgorlik Bibliyada keltirib o'tilgan qadimgi Ierixon shaxrining o'rni xisoblangan. Arxeologik qazish ishlari natijasida mil. av. 8-7 ming yilga oid xayot uzliksiz ikki kompleks Ierixon A, B komplekslari aniqlangan. Manzilgoh 4 ga iborat bo'lib, toshdan terilgan aylana devor bilan o'rab olingan.

Qurol motiga va o'roqlarning dastalari dexqonchilikning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek Ierixon A dan bir qatorli arpa va bug'doylarning izlari qurilish materiallarida saqlangan.

Kichik Osiyo (mil av. 8 ming yil oxiri -7 ming yil boshlari) Xojilar manzilgoxining quyi qatlamidan xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rni aniqlangan. Uylarning poli loysuvoq qilingan va devorlari bilan birgalikda qizil rangda bo'yalgan. Geometrik shaklda sopol idishlar uchramaydi. Idishlar toshdan yasalgan. Suyakdan bigiz, kremen va obsidiandan o'roq uchi qadamalari, silliqlangan tosh boltalar yasalgan. Ikki qatorli arpa ekilgan. Shuningdek bir qatorli yovvoyi bug'doylarni temachlash xam yordamchi xo'jalik hisoblangan. Bu yerda xam Ierixonliklar kabi murdalardan uyda ko'mishgan.

Old Osiyodagi ilk dehqonchilikning uchinchi bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash bo'lgan Shimoliy Eronning tog'li xudlari hisoblanadi. Bu yerda neolit davrida Jarmo madaniyati (VII-VI ming yilliklar) yoki ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra zagros madaniy birligi turidagi madaniyati rivojlangan. Jarmo madaniyatiga tegishli Jarmo yodgorligidan tashqari Zagros tog'larining Iroq qismida Telshimshara, uning Eron qasmida esa Tepaisarob va Tapaiguranlar mavjud.

Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalarida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi masalasida ham turli yondoshuv va qarashlar mavjud. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning Janubiy Turkmanistondagi neolit davri ilk

ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakliga asoslangan Joytun madaniyatining ildizlarini ayrim g‘arblik olimlar Eron hududi bilan bog‘lashgan.

Sharqiy Kaspiybo‘yi hududlarida mezolit davrining oxirlaridayoq yovvoyi hayvonlar xonakilishtirilib, neolit davrida xo‘jalikning chorvachilik shakli vujudga kelganligi arxeologik jihatdan asoslangan.

Janubiy Turkmanistonning issiq haroratli tabiiy-geografik sharoiti mahalliy neolit davri jamoasining ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ilk shakliga o‘tishlari uchun asos bo‘lgan. Ilk ishlab chiqarish markazlariga o‘lkaning yaqinligi ham mazkur jarayonning tezlashishida o‘zining ijobiy ta'sirini o‘tkazgan.

Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yi va Qizilqum hududlarida taxminan mil.avv. VII-III ming yilliklarda hukmron bo‘lgan “*Lavlakon namgarchiligi*” davri qulay iqlim sharoitida tabiiy oziq-ovqat zahiralarning ko‘pligi o‘zlashtiruvchi xo‘jalik saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan. Mazkur hududlarda yashagan qabilalar xo‘jalikning ovchilik, terib termachilik va baliqchilik shakllari bilan shug‘ullanishib, kun kechirishgan. Markaziy Osiyoning shimoliy hududlari va nisbatan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida xo‘jalikning ixtisoslashgan o‘zlashtiruvchi shakliga ega bo‘lgan madaniyatlar rivojlanib, ushbu xo‘jalik shakli uzoq muddat saqlanib qoladi.

Neolit davrida Janubiy Turkmaniston hududida ilk ishlab chiqarish xo‘jaligiga asoslangan Joytun madaniyati, Amudaryoning quyi oqimi, O‘zboy o‘zani, Sariqamish ko‘li atrofi, Orolbo‘yi va Qizilqum hududlarida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllariga asoslangan ***Kaltaminor*** madaniyati, Zarafshonning o‘rta oqimida ovchi va terib termachilikga asoslangan ***Sazag‘on*** madaniyati, Farg‘ona vodiysida terib termachilik va baliqchi asoslangan neolit davri jamoalari madaniyati, O‘zbekiston va Tojikistonning

janubiy tog‘ va tog‘ oldi hududlarida termachilik va ovchilikga asoslangan ***Hisor*** madaniyatlarini yaratgan qabilalari yashaganlar.

Joytun madaniyati (mil. avv. VII–VI ming yilliklar) Markaziy Osiyo hududidagi neolit davrining ilk o‘troq dehqonchilik madaniyati. Bu madaniyatga oid arxeologiya yodgorliklari Turkmanistonning janubi-g‘arbiy qismida Kopetdag va Qoraqum cho‘li oralig‘ida qadimdan o‘troq dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun qulay bo‘lgan issiq iqlimli hududlarda joylashgan.

Bu madaniyatga oid birinchi o‘rganilgan Joytun manzilgohi Ashgabat shahridan 30 *km.* shimolda qum barxani tepaligi joylashgan bo‘lib, keyinchalik Markaziy Osiyo hududida neolit davrining mashhur bo‘lgan ilk dehqonchilik madaniyatining nomlanishiga asos bo‘lgan yodgorlik sanaladi. Bu yodgorlik dastlab qisman arxeolog olim B.A.Kuftin va keyin V.M.Masson tomonidan to‘liq ochib o‘rganilgan. Hozirgi paytda Joytun madaniyatiga oid yoki neolit davri madaniy qatlamlariga ega bo‘lgan 17 ta arxeologiya yodgorliklari qayd qilingan bo‘lib, ularda B.A.Kuftin va V.M.Massondan tashqari O.K.Berdiev, A.A. Marušenko, O. Lollekova va boshqa olimlar ham tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Jebel madaniyati Turkmanistonning janubiy-g‘arbida Sharqiy Kaspiybo‘yi hududlarida mezolit davri o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shaklidagi madaniyatning davomida chorvachilikka asoslangan Jebel madaniyati vujudga keladi. Bu madaniyat nisbatan yaxshi o‘rganilgan Jebel yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Bu yerdagi mezolit davriga oid Jebel, Damdamchashma 1,2, Qaylu, Defichig‘anoq va boshqa yodgorliklarning yuqori qismidagi neolit davriga oid madaniy qatlamlari mil. avv. VII-V ming yilliklar bilan sanalangan.

Kaltaminor madaniyati. (mil.avv.VII ming yillik oxiri-III ming yilliklar) dastlab 1939 yili S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Oqchadaryo o‘zani hududi Yonbosh yodgorligini o‘rganish natijasida mazkur madaniyat aniqlangan.

Mil.avv. VII-III ming yilliklar Markaziy Osiyoning hozirgi cho‘l hududlarida odamlarning yashashlari uchun juda qulay tabiiy-geografik sharoiti hukmron bo‘lgan. Lavlakon namgarchiligi davrida Quyi Amudaryo, O‘zboy va Sariqamish o‘zanlari bilan birgalikda Markaziy Qizilqum, quyi Zarafshon, Sirdaryoning quyi oqimi hududlari ibtidoiy qabilalar yashaganlar.

Ushbu hududlardan neolit davri ibtidoiy qabilalarining sal kam ikki minga yaqin arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ularning kam sonli qismida arxeologiya tadqiqot ishlari olib borilgan. Markaziy Osiyoning katta xududiga yoyilgan ibtidoiy qabilalarning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik va moddiy madaniyatidagi yaqinlik ularni umumiy nom bilan Kaltaminor madaniyati majmuasiga birlashtiradi.

Sazag'on madaniyati (mil.avv. VII-IV ming yilliklar.) O'rta Zarafshon vohasida, Zarafshon tizmasining g'arbiy qismida, Qoratepa tog'i shimoliy yonbag'irlari hududlarida mezolit-neolit davrlariga oid ibtidoiy qabilalar madaniyati. Bu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik Samarqand shahridan 27 km. Janubda, Sazog'onsoyning yuqorisida, Qoratepa massivining shimoliy yonbag'rida 1966 yili arxeolog olim O.Ibragimov tomonidan aniqlanib, shu yili D.N.Lev boshchiligida arxeologik tadqiqot guruhi tomonidan tekshirish ishlari boshlangan.

Hisor madaniyati (mil.avv. V ming yillik oxiri – III/II ming yillik) Markaziy Osiyoning tog' hududlarida tarqalgan neolit davri madaniyati. Tojikistonning g'arbiy tog' oldi hududlarida A.P. Okladnikov va V.A. Ranov kabi arxeologlar tomonidan bu madaniyatga oid 100 dan ortiq makonlar qayd qilingan. Ular qisqa mudatli, mavsumiy va doimiy yashash manzillaridan iborat bo'lgan. Qisqa muddatli va mavsumiy makonlar tog' oldi hududlarida joylashgan jamoa a'zolarining ov mavsumida yashagan kulbalari tashkil qilgan. Doimiy yashash makonlari Kofirnahar, Vaxsh va ularning irmoqlari vodiylarida joylashgan.

### **Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. O'rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolari fanining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqligi.
2. O'rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolari haqidagi bilimlarni qaror topishi.
3. Mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganishni mohiyati va ahamiyati.



## Adabiyotlar ro`yxati

1. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т., 2000. doc.
2. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси - давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т.2011. pdf
3. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. “YURIST-MEDIA MARKAZI” нашриёти. Тошкент. 2008.
4. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1996. pdf.
5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2004. pdf.
6. Широшов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. Самарканд. 1993.
7. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo`li - sivilizatsiyalararo muloqot yo`li. O`quv qo`llanma. T. 2010. pdf.
8. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O`quv qo`llanma. T.: ToshDSHI. 2010. pdf.
9. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986. pdf.
10. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.
11. Зубов А.А. Становление и первоначальное расселение рода “Номо”. Санкт-Петербург. 2011.
12. Рындина Н.В., Дегтярева А.Д. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие по курсу «Основы археологии». Изд. МГУ.2002.

## Elektron manbalar

13. [www.history.ru](http://www.history.ru)
14. [www.natura.com](http://www.natura.com)
15. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)

## 2-MAVZU: O'rta Osiyoning tosh va paleometall davri arxeologiyasi masalalari

### *REJA:*

- 2.1. O'rta Osiyoning tosh davri arxeologiyasi: yangi tadqiqotlar va xronologiya masalalari
- 2.2. O'rta Osiyoning paleometall davri arxeologiyasi masalalari: tadqiqotlar ko'lamining o'sishi.

**Tayanch iboralar:** eneolit, qurilish, me'morchilik, hunarmandchilik, taraqqiyot, kulolchilik, metall, bronza, texnologik, taraqqiyot, shahar, davlat, etno-madaniy, migratsiya, urbanizatsiya, davlatchilik.

### **2.1. O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari muammolari.**

Insoniyatning qadimgi metall davrini hamrab olgan bosqichidan iborat bo'lib, dastlabki mis va bronzadan foydalana boshlagan davrlardan iborat. Eneolit (lot. "aeneus" - mis, yun. "litos"-tosh) - tarjimada mis-tosh, degan ma'noni anglatib, muqobil atama sifatida ham ishlatiladi. Ayrim mamlakatlar ilmiy adabiyotlarda bu davrga nisbatan halkolit (halko-mis) atamasi ham qo'llaniladi.

Eneolit (mil. avv.VI ming yillik oxiri - III ming yillikning boshlari) Bu davrning katta yutuqi kishilarning dastlabki metal bilan tanishib, tosh qurollari bilan birgalikda mis qurollaridan ham foydalana boshlanishidir. Mis qurollari tosh qurollariga nisbatan ancha takomillashgan bo'lsada, misdan kuchli va og'ir qurollar yasab bo'lmagan. Shuning uchun misdan yasalgan qurollar kishilar ijtimoiy hayotida yuqori mavqeyga ega bo'lmadi, tosh qurollar o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Bu davrda kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'lib, tub burilish davri yasalishiga sabab bo'ladi.

Insoniyat dastlabki metall - misdan bilan bundan 10 ming yil burun tanishib, bunday buyuk voqyealik janubi-g'arbiy Anatoliya (Turkiya) sodir

bo'lad. Arxeolog olimlar bu erdagi neolit davri Chayonyu tepesi yodgorlik harobalaridan olimlar yuzlab mis bo'lakchalarini va ko'pgina mis ma'dani oskolkasi-malahitni topib o'rganilib, ulardan bir qanchasi munchoq sifatida foydalanilgan. Markaziy Anatoliyaning janubida joylashgan mil.av. VIII ming yillikga oid Ashikli Guyuk manzilgohidan ko'p sonli mis zeb-ziynat buyumlari topilgan. Kichik Osiyoning Chatalquyuk va Hojilar manzilgohlarning neolit davri madaniy qatlamlari moddiy topilmalari orasida mis va qalayidan yasalgan buyumlar ham muhim o'rin tutadi. Shimoliy Mesopotamiyaning keyingi bosqichlarga oid Yarimtepa I, II va Tell Mazgaliya manzilgohlaridan mis buyumlari topib o'rganilgan.

Mis sof holda tabiatda kam uchraydigan ma'dan bo'lib, insoniyat samoviy meteoritlar tarkibida bo'lgan namunalari orqali tanishishgan. Kishilar misga ishlov berish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki paytlarda go'yo toshni ishlash usuli kabi muomalada bo'lishib, uni sindirishga harakat qilishgan. Umuman, qadimgi ma'dan - misdan foydalanishning to'rt bosqichda ajralib turadi. Ilk bosqichda urib shakl berish orqali, keyin esa olovda toblab shakl berish ko'nikmasi egallangan. Natijada uchinchi bosqichda eritish malakasi egallanib, rudalarni keng o'zlashtirish ishlari rivojlanadi. Bu bosqich malakasi asta-sekin bronza quyish texnologiyasini o'zlashtirish bilan yakun topadi.

**Eneolit davri umumiy tavsifi.** Eneolit ( mil. avv. V-III ming yilliklar) - bu dastlabki metal (yunon. enius - «mis», litos - lot. «tosh») davri bo'lib, mis-tosh va halkolit kabi atamalar ham qo'llaniladi. Bu davrning muhim jihati dastlabki metallardan keng foydalana boshlanishidir. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha Janubi- sharqiy Anatoliyada bundan 9-10 ming yillar burun dastlabki misdan ishlangan buyumlarning namunalari aniqlangan. Bu erdagi Chayonyu tepesi yodgorligining neolit davri sopol buyumlar paydo bo'lgunga qadar madaniy qatlamlaridagi tosh imoratlar harobalaridan yuzlab mis bo'laklari va bir

necha malahit (tarkibida mis minerali bo'lgan yashil rangli tosh) bo'laklarini aniqlangan. Ushbu topilmalarning ayrimlari munchoq sifatida ishlangan.

Markaziy Anatoliya hududidagi mil. avv. 8 ming yilliklar bilan sanalgan Ashikli Guyuk yodgorligidan ham bir qancha misdan ishlangan taqinchoqlar aniqlanadi. Mis va qo‘rg‘oshin Shimoliy Mesopotamiyadagi Yarimtepa 1,2 va Tellmazgaliya yodgorliklaridan ham aniqlangan. Mis buyumlaridan Chatal Guyuk topilmalari muhim o‘rin egallaydi. Bu yodgorlik qadimiy imoratlari va ibodatxonalar harobalaridan ko‘plab mis va qo‘rg‘oshin nushalari aniqlangan.

## **2.2. Bronza davri xususiyatlari va bronza metallurgiyasining texnologik taraqqiyoti.**

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida buyuk o‘zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma‘naviy hayotida ham tub o‘zgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat bo‘lgan. Eng yaxshi bronzaning tarkibida 90 % mis va 10 % qalay bo‘lgan. U dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopotamiyada (ikki daryo oralig‘ida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson bo‘lganligi uchun mis qurollarni siqib chiqardi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning har bir xo‘jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi ko‘payishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan.

Bronza maxsus qalin sopol idish—tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopoldan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiy o surtilgan va bronza qolipdan oson ajralgan. Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g‘arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O‘zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham o‘ziga xos tarzda davom etgan. O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O‘zbekistonning janubiy—sharqiy va markaziy

hududlarida, ya'ni Samarqand, Farg'ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari so'nggi bronza davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ya'ni Andronova va Tozabog'yob madaniyatlari aholisi yashab kelgan. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi yetakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi.

Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning 2 chi yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. O'rta Osiyoning janubiy va janubi-g'arbiy rayonlari dehqonchilik madaniyatining o'choqlariga aylandi. Uning cho'l va dasht zonalarida chorvadorlar va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat bo'lgan.

### **2.3. O'rta Osiyoda bronza davri urbanizatsiyasi va davlatchiligi masalalari.**

Ilk shaharlarning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Undan tashqari ilk shahar sivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Aynan turli shart-sharoitlar, turli shakldagi aholi punktlari, ko'chmanchi aholi yashash hududlari, o'troq aholi bilan ular o'rtasidagi chegaraviy hududlar-bularning barchasi aholi hududiy rayonlashuvining (ma'lum hududlarda ma'lum turmush tarzi yuritgai aholi joylashuvi) asosi hisoblanadi. Shuningdek,

aholining ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan (dehqonchilik, hunarmandchilik va boshq.) faoliyati ham rayonlashuvni belgilab beradi. Tadqiqotlar natijalarini ilmiy-qiyosiy tahlil qilish natijasida O‘rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o‘choqlar rayonlashuvini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. I davr-mil. avv. III-II ming yillik birinchi yarmi-Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoh), Yuqori Zarafshon (Sarazm), Janubiy O‘zbekiston (Sopollitepa);
2. II davr-mil. avv. II ming yillikning o‘rtalari-Janubiy Turkmaniston (Gonur), Janubiy O‘zbekiston (Jarqo‘ton);
3. III davr-mil. avv. II ming yillik oxiri-I ming yillikning o‘rtalari-Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mil. avv. III ming yillikning o‘rtalariga kelib O‘rta Osiyoning Qizilqum, Qoraqum cho‘llarining ichkarilari, Pomir hamda Oloy tog‘larining etaklari aholi tomonidan o‘zlashtirilish boriladi. Bu davrda O‘rta Osiyoning shimoli hamda shimoli-sharqida yashagan aholi asosan chorvachilik xo‘jaligi yuritganlar. Bu hududlardan topib tadqiq etilgan Andronov, Tozabog‘yob, Zamonbobo, Qayroqqum kabi yodgorliklar bronza davri o‘ziga xos jarayonlaridan dalolat beradi. O‘rta Osiyoning janubiy qismida yashagan aholi o‘troq turmush tarziga o‘tib asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Bu hududlarda aholining Namozgoh, Sopolli, Dashli,

Oltintepa, Gonur kabi o‘troq dehqonchilik madaniyatlari shakllanib taraqqiy etadi. Undan tashqari aynan janubiy hududlarda qadimda Baqtriya, So‘g‘diyona, Girkaniya, Parfiya, Ariya va Marg‘iyona kabi tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanadi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, uzoq dehqonchilik xo‘jaliklari yuritgan aholi bronza davridayoq alohida vohalar yashab, daryo quyi havzalarini o‘zlashtirganlar. Aholining bunday joylashuv tartibi tabiiy-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan (misol uchun, suv resurslari birmuncha chegaralangan) O‘rta va Yaqin Sharq qadimgi hududlari uchun xosdir. So‘nggi bronza va ilk temir asri O‘rta Osiyo tarixida

keskin ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davr jamiyat hayotida ibtidoiy munosabatlar inqirozga uchrab yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlana boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ilk shaharlarning shakllanish jarayoni nihoyasiga yetib rivojlanish bosqichiga o'tadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar e'tirof etgan dastlabki sivilizatsiyalar, ilk shaharsozlik madaniyati, davlatlar paydo bo'lishi jarayonlari o'rtasida dialektik bog'liqlikni dastlabki shahar markazlari o'choqlarining rayonlashuvi jarayonlarini tahlil etganimizda ham kuzatishimiz mumkin. O'rta Osiyoning eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati mintaqaning janubi-g'arbida, Kopetdog'ning shimoliy tog' oldi tekisligida paydo bo'ladi. Bu jarayonga ikkita muhim omil-kichik vohalarda dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay sharoit hamda dunyo tarixida dastlabki dehqonchilik o'chog'lari bo'lgan Old Osiyo va Eron bilan qadimiy uzviy aloqalar asos bo'ldi. O'tgan asrning 60-yillarida olib borilgan tadqiqotlar Kopetdog' tog' oldi tekisliklarida Qadimgi Sharq ko'rinishidagi sivilizatsiya rivojlanganligi haqida masala ko'tarilishiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoning janubida keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Murg'ob vohasida ochilgan mil. avv. II ming yillik madaniyati va Amudaryoning o'rta oqimi madaniyatlari ushbu markazlarning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu tadqiqotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'rta Osiyoning janubiy hududlari qadimgi Sharq ko'rinishidagi yuqori darajali madaniyat sohiblari bo'lgan o'troq jamoalar tomonidan ancha ilgari o'zlashtirilgan. Aniqlanishicha, dastlabki dehqonlar Kopetdog' tog' oldi tekisligi hududlari bilan chegaralanib qolmasdan eng yuqori rivojlanish darajasi jarayonida Murg'obning qadimgi havzasi hududlarini o'zlashtirib, Zarafshonning yuqori oqimi hududlarigacha boradilar. Bu hududlardan Janubiy Turkmaniston so'nggi eneolit davri madaniyatiga xos Sarazm manzilgohi o'rganilgan. Ushbu ko'p sonli va turli-tuman ma'lumotlar O'rta Osiyo, xech bo'lmaganda uning janubiy viloyatlari boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi ilk dehqonchilikdan dastlabki sivilizatsiyagacha rivojlanish konuniy jarayoni bo'lib o'tgan qadimgi madaniyat o'chog'i degan fikrlarni yana bir marta isbotlaydi.

### **Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar:**

1. O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari.
2. Bronza davri xususiyatlari va bronza metallurgiyasining texnologik taraqqiyoti.
3. Bronza davri etno-madaniy migratsiyalari.
4. O'rta Osiyoda bronza davri urbanizatsiyasi va davlatchiligi masalalari.
5. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy markazlari.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т., 2000. doc.
2. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси - давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т.2011. pdf
3. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. "YURIST-MEDIA MARKAZI" нашриёти. Тошкент. 2008.
  4. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1996. pdf.
  5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2004. pdf.
  6. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. Самарканд. 1993.



7. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo`li - sivilizatsiyalararo muloqot yo`li. O`quv qo`llanma. T. 2010. pdf.
8. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O`quv qo`llanma. T.: ToshDSHI. 2010. pdf.
9. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986. pdf.
10. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.
11. Зубов А.А. Становление и первоначальное расселение рода “Homo”. Санкт-Петербург. 2011.
12. Рындина Н.В., Дегтярева А.Д. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие по курсу «Основы археологии». Изд. МГУ.2002.

**Электрон манбалар:**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
4. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)

#### *РЕЖА:*

- 1.1. Антик даври археологиясининг ўрганишда янгича ёндошувлар ва илмий назариялар
- 1.2. Ўрта Осиёнинг антик даври археологик ёдгорликларини таснифи.

**Таянч иборалар:** илк темир, антик, тарихий-маданий, этно-маданий, миграция, антик, ихтисослашиш, заргарлик, санъат, ҳайкалтарошлик, ранг-тасвир, торевтика.

#### **3.1. Илк темир даври қадимги шаҳар маданиятининг шаклланиши.**

Ўрта Осиёнинг темир даври тарихини ўрганишда ёзма манбаларнинг камлиги ҳамда тўлиқ эмаслигини эътиборга олиш лозим.

Ўрта Осиё ва Ўзбекистоннинг қадимий вилоятлари жамияти тўғрисида муҳим ёзма манбалар – “Авесто”, (мил. авв. IX-VIII, VII-VI асрлар), ахамонийлар даври (мил. авв. VI-V асрлар) ёзма ёдгорликлари ва қадимги юнон тарихшунослари (мил. авв. V-IV асрлар) ҳикоя қилади. Афсуски, “Авесто”нинг энг қадимги қисмлари бизнинг замонамизгача етиб келмаган. Мазкур тўплам миғлодий III-VII асрларда таҳрир қилинган. “Авесто”нинг кейинги бизгача етиб келган қисмлари тўрт китобнигина ўз ичига олади. Ясна (“қурбонлик”, - дуолар ёки қурбонлик келтириш), Яшт (“қадрлаш”, “улуғлаш” - маъбудлар учун мадҳиялар), Видевдат (“девларга қарши қонун”), Виспрат (“барча ҳукмдорлар”). Бу китоблар ёзилган тил “Авесто” туфайлигина маълум бўлиб, авесто тили дейилади.

Кўп қатламли, мураккаб манба ҳисобланган, “Авесто” асрлар давомида шаклланиб борган. “Авесто”нинг энг қадимий қисмларида кенг ҳудудда жойлашган жамият тасвирланган бўлиб, мазкур жамият ҳақида ҳали ёзув мавжуд бўлмаган замонларга оид тасаввурлар сақланган. Ўрта Осиё учун

“Авесто” маълумотлари археологик манбалар билан солиштирилган ҳолда кенг даврий чегара оралиғида - бронза давридан тортиб қадимги дунё - антик давргача бўлган ижтимоий-иқтисодий тарихни ёритишда фойдаланилади.

“Авесто” зардуштийлик дининг мўқаддас китоби бўлиб, у Заратуштра (Зардушт) динидаги халқларнинг шариат қонунлари мажмуидан иборат. Заратуштра (юнонча Зороастр) исми билан аталган зардуштийлик (заратуштризм, зороастризм) Ўрта Осиёда ислом дини жорий этилишидан олдин кенг тарқалган “Авесто”нинг баъзи бир қисмларида Заратуштра “заотара” ёки “атаурвон”, яъни қоҳин тарзида тилга олинади. Зардуштийлик

дини тарихи бўйича етакчи мутахассислар мазкур ҳолатга алоҳида эътибор қаратар эканлар, Заратуштра бу диннинг ягона асосчисидир, шунинг билан бирга, у ҳам қоҳин, ҳам зардуштийларнинг пайғамбари эди, деб фараз қиладилар.

“Авесто” Ўрта Осиё вилоятларининг қадимги тарихи, ижтимоий тузуми, иқтисодий ҳаёти ва маънавий маданиятини ўрганишда муҳим манбадир. “Авесто”нинг энг қадимги ҳудудий географик номлари Ўрта Осиё вилоятлари билан боғланган (Яшт китоби, 10-боб). Руйхатдаги биринчи мамлакат - “Арёнам Вайчах” ёки “Арешайёна”, “Арёнам Вайжо”. У юртда кўпдан-кўп яйловларга эга баланд тоғлар, кенг дарёлар ва чуқур кўллар мавжуд бўлган. Яшт китобида Иската, Поруту, Моуру, Гава Сўғда (Сўғд макони) ва Хоразм каби бошқа мамлакатлар ҳам тилга олинган.

“Авесто” Видевдат китобининг биринчи бобида санаб ўтилган куйидаги вилоятлар Яшт китобидаги мамлакатлар рўйхатидан анча фарқ қилади: Арёнам Вайжо, Гава, Моуру, Бахди, Нисайя, Аръё, Ваэкерета, Урва, Хнанта, Хайтумант, Рага, Чахро ва Варна.

“Авесто”да Хоразм, Марғиёна, Сўғд, Бактрия вилоятлари йирик мамлакатлар қаторида тилга олинган. Шунинг билан бирга, Арёнам Вайжони ҳам кенг ўлка сифатида тушуниш мумкин. У ерда баланд тоғлар - Помир, Ҳисор, Тангритоғ, чуқур кўллар - Каспий, Орол, Исиккўл, кенг дарёлар - Амударё ва Сирдарё жойлашган деб фараз қилинади.

**Маргиёна.** Қадимги ёзма манбаларда Моуру, Маргуш ва Маргиана номлари билан тилга олинган Марв воҳасидаги дастлабки ёдгорликлар (Ёзтепа, Аравали тепа, Кўхнатепа ва Учтепа) америкалик тадқиқотчи Р.Пампелли томонидан аниқланган.

Ёзтепа бошқаларига нисбатан ажралиб туради. Ҳозирги пайтда манзилгоҳнинг 16 га. дан иборат қисми сақланиб қолган. Унинг бир четида 1 га. жойда 8 метр қалинликдаги тағ курси устида кўрғон (арк) жойлашган. Унинг атрофида тарқоқ қурилган уй-жой иморатлари жойлашган бўлиб, мудофаа деворлари билан ўраб олинган.

**Шимолий Парфия.** Копетдаг билан Қорақум оралиғидаги қадимдан ўзлаштирилган ўтроқ деҳқончилик воҳаларида илк темир даврига оид манзилгоҳлар тарқалган. Уларнинг бир неча турлари ажралиб туради. Йирик ҳажмдаги аркга эга бўлган қадимги шаҳар туридаги манзилгоҳлар. (Елкантепа, Улуғтепа), ўртача ҳажмдаги аркига эга бўлмаган май. 1 га. дан ортиқ бўлган манзилгоҳлар (Ясситепа, Агачлитепа) ва кичик манзилгоҳлар (кичик кишлоқлар май. 1 га. гача) (Крахантепа I,II,III, Елантепа, Овадантепа).

**Қадимги Дахистон.** Қадимги Дахистон Туркменистоннинг жанубий-ғарбида Каспий денгизининг жануби-шарқий қисмида Мешхед-Мисриан ва Чат текисликларида Гурган, Сумбар, Атрек ва Бенгувона каби кичик дарё воҳаларида жойлашган қадимги тарихий-маданий вилоят. Антик даври ёзма манбаларида келтирилган маълумотларга кўра бу ўлка Гиркания, деб номланган. Археология маълумотларга асосан бу ўлка мил. авв. II минг йилликнинг охирларидан бошлаб ўзлаштирила бошланган. Бу ерни ўзлаштирган аҳоли тадқиқотчи олимларнинг фикрларига кўра гирканларнинг аجدодлари бўлган. Бу ерда 20 дан ортиқ ёдгорликлар ўрганилган.

**Шимолий Бактрия.** Қадимги Бактрия тўғрисидаги дастлабки маълумотлар зардуштийлик динининг муқаддас китоби Авестонинг Ведевдат қисмида Бахди, қадимги форс манбаларида Бактриш ва юнон-форс муаллифлари асарларида Бактрия номлари билан келтирилган қадимий ўлка шимолда Сўғд билан Ҳисор тоғ тизмалари, жанубда эса Ҳиндикуш тоғлари билан чегараланган. Ғарбда чагараси Амударё оқими бўйлаб Мурғоб

ваҳасигача шарқда эса Помир тоғ тизимларигача бўлган ерларни ишғол қилган. Қадимги Бақтриянинг чегараси Ўзбекистон ва Тожикистон республикаларининг жануби ҳамда Афғонистоннинг шимолий ҳудудига тўғри келади.

Бақтриянинг бу даврдаги манзилгоҳларининг тузилиши ва ҳажмига кўра қуйидаги шакллари ажралиб туради. Йирик шаҳар марказини ташкил этган манзилгоҳлар. Улар одатда икки ёки уч қисмдан иборат бўлиб, мудофаа тизимига эга бўлган манзилгоҳлар (Қизилтепа,) ташқи мудофаа тизимига эга бўлган майдон 5-10 га. жойни ташкил этувчи манзилгоҳлар (Талашкон I, Бандихон II) мудофаа тизимига эга бўлган кичик ҳажмидаги алоҳида вазифаларни бажарувчи манзилгоҳлар (Тиллатепа, Кучуктепа). Бу манзилгоҳлар Бақтриянинг ҳар иккала қисмидаги алоҳида жойлашган микро воҳаларда жойлашган.

**Сўғд.** Сўғд ҳудудида илк темир даврининг бошларида ўтроқ деҳқончилик маданияти қарор топган. Ўлканинг илк темир даврига оид ўтроқ деҳқончилик манзилгоҳлари дастлаб Самарқанд ва Қашқадарё воҳалари шаклланган. Бу ерлардаги Афросиёб, Кўктепа, Узунқир, Подаётқ, Сангиртепа ва Ерқўрғон ёдгорликларининг қуйи қатламлари дастлабки аҳоли томонидан ўзлаштирилган ва кейинги тараққиёт босқичларида улар мураккаблашиб борган. Улар бошқаларига нисбатан археологик жиҳатдан яхши ўрганилган ёдгорликлар ҳисобланади.

**Фарғона водийсининг илк темир даври Чуст маданияти.** Фарғона водийси Марказий Осиёнинг йирик тарихий-маданий вилоятларидан бири ҳисобланади. У Сирдарёнинг юқори оқими ҳудудида жойлашган бўлиб, жанубдан Олой ва Туркистон, шарқдан Фарғона ва Отўйноқ ҳамда шимол томондан Чотқол-Қурама тоғлари билан ўраб олинган. Бу ҳудуд чорвачилик ва ўтроқ деҳқончилик хўжаликларининг шаклланиши учун жуда қулай бўлган табиий-географик шароитга эга бўлган жиҳатдан.

Чустликларда бронзага ишлов бериш, улардан меҳнат курол-яроғлар тайёрлаш яхши ривожланган. Далварзинтепа ёдгорлигидан мил. авв. IX

асрга оид темир буюм намунаси топиб ўрганилган. Тошлардан меҳнат қуроллари яшаш ўз аҳамиятини йўқотмайди.

Дехқончиликда арпа, буғдой ва бошқа дуккакли ўсимликлар етиштирганлар. Бу ерда деҳқончилик суғоришга асосланмаган. Чорвачиликда қорамол, қўй, эчки боққанлар. Дарё ва кўл бўйларида яшаган халқлар балиқчилик билан ҳам шуғулланганлар.

**Эйлатон маданияти.** Чуст маданиятининг давоми сифатида Фарғона водийсида Эйлатон маданияти (мил. авв. VII-IV асрлар) ривожланади. Эйлатон маданиятига доир ёдгорликлар Фарғона водийсининг деярли барча ҳудудларига тарқалиб, археологик жиҳатдан қайд этилган. Эйлатон даврида мудрофаа деворлари тузилиши ўзгаради. Манзилгоҳлар аниқ тузилишга, яъни тўғри тўртбурчак шаклини олади. Тўғри тўртбурчак буржлар пайдо бўлади. Манзилгоҳнинг майдони 200 гектардан иборат бўлиб, Қорадарё бўйида жойлашган. Икки қатор мудрофаа девори билан ўраб олинган, деворлар квадрат шакли буржлар билан кучайтирилган. Манзилгоҳ ички (20 га.) ва ташқи қисмларидан ташкил топган.

**Тошкент воҳасида Бургулик маданияти.** Тошкент воҳасининг илк темир даври моддий маданияти Бургулик маданияти мисолида яхши ўрганилган. Бу маданиятга оид дастлабки моддий топилмалар 1940 йили А.И.Тереножкин томонидан Оҳангарон дарёсининг ўрта оқимида Бургуликсой ёқасидан топиб ўрганилган. Ҳозиргача бу маданиятга оид 20 дан ортиқ манзилгоҳлар ва 50 га яқин уй-жойлар маълум. Бу маданиятнинг даври А.И.Тереножкиндан кейин дастлаб Х.Дуке томонидан ўз илмий тадқиқотлари натижаларига асосида мил. авв. IX-VII асрлар доирасида белгиланган.

**Уструшона.** Уструшона Марказий Осиёнинг муҳим тарихий маданий вилояти бири. Бу ўлка бўлган Уструшона ўлкаси Фарғонадан жанубий-ғарб Сўғд ва Чоч оралиғида жойлашган бўлиб, илк ўрта асрлар даври ёзма манба маълумотларида Уструшона номи билан юритилган. У Туркистон тоғ тизимидан шимолда Хўжанддан Жиззахгача бўлган ҳудудлардаги ерларни ишғол этади. Ўлкада мил.авв. VII-VI асрларда дастлабки ўтроқ деҳқончилик

манзилгоҳлари шаклланади. Манзилгоҳлардан қадимгиси ва нисбатан йириги Нуртепа ҳисобланади. Унинг умумий майдони 18 га. дан иборат бўлиб, арк ва шахристон қисмларидан ташкил топган.

**Қадимги кўчманчилар.** Чорвачилик билан шуғулланган кўчманчи қабилалар Авестода турлар, юнон тарихчиларининг асарларида скифлар ва массагетлар ахамонийлар даври ёзувларида эса улар саклар номи билан келтирилган.

Марказий Осиёнинг дашт ва тоғли ҳудудларида яшаган сакларнинг ёдгорликлари Қуйи Зарафшон, Амударё, Орол бўйи, Помир ва Тянь-шань тоғларида топилган. Улар асосан қабр қўрғонлардан иборат. Топилмалар бронза ва темирдан ишланган ҳарбий қурооллар зеб-зийнат буюмлари, меҳнат қурооллари ва сопол идишлар учрайди.

Сакларнинг қабр-қўрғонларидан от анжомлари учрайди. Геродотнинг маълумотларига кўра сакларнинг хўжалигида йилқичилик асосий ўрин тутган.

Кўчманчиларнинг уйлари ертўла ва чайласимон шаклда бўлган. Улар чорва изидан доимо кўчиб юрганликлари туфайли доимий ўтроқ ҳаёт улар учун муҳим ўрин ўйнамаган. Кўчманчи сак қабилаларининг қабр қўрғонларидаги моддий топилмаларга кўра уларга мулкӣ тенгсизлик мавжуд бўлган. Лекин уларда қачон синфий жамият пайдо бўлганлиги ноаниқ. Олимларнинг фикрига кўра, мил. авв. VII-VI асрларда кўчманчилар орасида ҳарбий-сиёсий қабила уюшмалари мавжуд бўлган.

Тарихий маълумотларга кўра, қадимги **Хоразм** ҳудуди ўрта Амударё оқимидан бошланиб Орол денгизигача жойлашган ерларни ўз ичига олган, **Бақтрия** ерлари – бу Афғонистоннинг шимоли-шарқи, Жанубий Тожикистон, Сурхондарё вилояти ҳисобланган.

Бақтрия ҳудудий чегаралари: жанубда – Ҳиндиқуш тизмаси, шимолда – Ҳисор тоғлари, шарқда – Помир, ғарбда – Амударёнинг ўрта оқими ҳисобланади.

**Сўғдиёна** – ҳозирги Қашқадарё, ва Зарафшон воҳаларидир. Сўғдиёнининг географик чегаралари: ғарбда Бухоро воҳасидан шарқда Ҳисор

тоғлари бўйлаб, жанубда Қашқадарё ва Кўхитоғ оралиғида, шимолда эса, Нурота тизмаларига бориб тақалган.

**Марғиёна** – Туркманистон жанубидаги Мурғоб воҳаси, **Парфия** – Туркманистоннинг жануби-ғарби, Эронинг шимоли-шарқи. Ўрта Осиё ўтроқ вилоятларининг қўшни ерларида кўчманчи сак-массагет қабилалари яшаган (Помир, Тангритоғ, Жанубий Қозоғистон, Тошкент, Сирдарё вилояти, қуйи Зарафшон, Қуйи Амударё, Сирдарё ҳамда Орол денгизи атрофлари).

**Иқтисод ва ижтимоий тузум.** Ўзбекистоннинг турли вилоятларида Афросиёб, Узунқир, Қизилтепа, Кўктепа, Ерқўрғон каби дастлабки шаҳарлар марказлари раванқ топган. Ушбу шаҳарларда бинокорлик, ҳунармандчилик ва савдо юксак даражада ривожланган.

Сурхондарёдаги Қизилтепа қадимги шаҳар маркази атрофида тўртбурчак шаклида қурилган қадимий уй- кўрғонлар қолдиқлари топилган (Қизилчатеп). Улар пахса деворлар билан ўралган ва хом ғишлардан қурилган уй-жой, хўжалик хоналари, ошхоналардан ҳамда ички ҳовлидан иборат. Пахса деворлар билан мустаҳкамланган ташқи қисмда эса подахона бўлган.

### **3.2. Ўрта Осиё худудида вужудга келган қадимги подшоликлар масаласи.**

Ёзма манбалардаги маълумотларга кўра, Ўрта Осиё, жумладан, Ўзбекистон худудларида ривож топган илк давлатларни — подшоликлар ташкил қилган. Юнон тарихшунослари асарларида Бақтрия подшоси Оксиарт ва Хоразм подшоси Фарасмон ҳақида маълумотлар мавжуд.

Ушбу давлатлар бир неча вилоятларни бирлаштирган, шунинг учун ҳам мил. авв. VII-VI аср давлатчилиги тизимида марказий ва маҳаллий бошқарув хос бўлган. Мисол учун, Бақтрия подшосининг қароргоҳи давлат пойтахти Бақтра шаҳрида жойлашган, вилоят ва туманларни маҳаллий ҳокимлар бошқариб турган. Аммо ёзма манбаларда ана шу даврнинг сарой унвонлари ва ҳарбий-маъмурий мансаблари ҳақида маълумотлар келтирилмаган.



Мил. авв. 540-330 йилларда Ўрта Осиё **Аҳамонийлар** давлати таркибига кирган. Бу давлатнинг бошқарув шакли **чекланмаган подшо ҳокимияти (мутлак. монархия)** - дан иборат эди. Олий ҳукмдор аҳамонийлар сулоласининг вакили бўлган (Кир II - мил. авв. 558-530 и, Камбиз 530-525 й., Дуро I - 522-486 й. ва бошқалар). Дуро давлатни **“хшатра” — “вилоят”** тушунчасидан келиб чиққан **“сатрапликлар”** деб номланган алоҳида маъмурий ўлкаларга тақсимлади. Мил. авв. 518 йилга келиб, аҳамонийлар Ҳинд водийсидан Ўрта ер денгизигача бўлган худудларда ўз ҳукмронлигини ўрнатган.

Геродот Ўрта Осиё халқлари ҳақида бундай хабар қилади: **“Бақтрияликлардан эгларгача бўлган халқлар 360 талант солиқ тўлаганлар. Бу – ўн иккинчи ўлка. (Бир талант 25, 92 кг. кумушдир).**

Саклар ва каспийлар 250 талант тўлаганлар. Бу – ўн биринчи ўлка. Парфияликлар, хоразмликлар, сўғдлар ва арийлар 300 талант тўлаганлар. Бу – ўн олтинчи ўлка”.

**Сатрапликларда бошқарув тизими.** Ҳар бир маъмурий ўлка ҳокими (қадимги форс тилида - **“хшатрапа- на”**, юнонча - **“сатрап”**) аҳамонийлар подшоси фармонига кўра тайинланган.

Масалан, Бақтрияни идора қилган сатраплар Аҳамонийлар сулоласи вакиллари (мил.авв.522 йилдан бошлаб, мил.авв. 423 йилгача қадимги форс подшоларининг ўғиллари ва ака-укалари) бўлган.

Сатрап ўз ўлкасида вилоят, туман ҳокимлари ва қишлоқ оқсоқолларига таянган ҳолда бошқарувни амалга оширган. Унинг вазифалари сатрапликнинг хавфсизлигини таъминлаш, ҳарбий юришлар пайтида ўлкадан марказга қўшинлар юбориш, йиллик солиқларни белгиланган турларда ва миқдорда йиғиб олиб, марказий давлат ғазнасига етказиб беришдан иборат бўлган.

Сатрапликларнинг бошқарув ташкилотига турли мансаб ва лавозимлар мавжуд эди (девонхона бошлиғи, хазинабон, солиқ йиғувчи, суд ишларини юритувчи, хаттот-котиб, хўжалик ишлари бошлиғи). Сатрапларнинг фаолиятини назорат қилувчи шахс - **“подшонинг кўзлари ва қулоқлари”** -

айғоқчи, қадимги форс битикларида “гаушака” деб аталган. У сатрапдан мустақил бўлиб, сатрапликларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва айнан сатрап фаолияти аҳволи ҳақида подшога маълумот етказиб турган.

Ўрта Осиё сатрапликлари муайян миқдорда белгиланган кумуш солиқлардан ташқари қишлоқ хўжалик, чорва ва хунармандчилик маҳсулотлари шаклида ҳам ўлпон тўлашга мажбур эдилар.

Эрондаги қадимги Персепол шаҳридаги Доро I ва Ксеркс подшолар сарой деворларидаги бўртма расмларда турли халқларнинг ўлпон келтириш манзараси тасвирланган. Бу расмлар қадимги Шарқ халқларининг ўзига хос қуроллари, кийим бошлари ва қиёфасини кўрсатиб туради. Сўғдийлар етти кишидан иборат бўлиб, подшога идишлар, газмол, номаълум ҳайвон териси ва икки қўйни етаклаб келаётган ҳолатда тасвирланган. Саклар узун чўққили қалпоқларда тасвирланиб, кийим-кечакларни кўтариб, отни етаклаб бормоқдалар. Бактрияликларнинг беш вакилининг идишларни ва туяни олиб бораётган, хоразмликларнинг дудама ханжар, ҳарбий болта, билагузук ва отни олиб келаётган ҳолатлари тасвирланган.

Бу расмларда Сўғдиёна, Бактрия, Хоразм ва саклар ўлкасидан бўлган солиқ тўловчиларнинг аҳамонийлар подшосига турли хил буюмлар (кулолчилик, тўқувчилик, заргарлик ҳарбий қуроллар), қадимги Шарқда машҳур бўлган от ва туяларни олиб келаётган ҳолатлари тасвирланган. Ундан ташқари қадимги форс ёзувларига кўра, Ўрта Осиё вилоятларидан Эронга олтин ва қимматбаҳо тошлар — ложувард (лаъл), фируза олиб келинган.

Солиқ йиғилиши қишлоқ оқсоқоллари, туман ва вилоят ҳокимлари зиммасига тушган. Солиқлар сатраплар саройи ғазна омборхоналарида тўпланган. Сатрап ўлка миқёсидаги солиқларнинг йиғиб олиниши жараёнини назорат қилган. Сарой хазиначиси ва ҳисобчилари туман ва вилоятлардан етказиб берилган солиқлар турлари ва миқдори асосида иқтисодий-молиявий ҳисоботлар тайёрлаганлар. Ушбу маълумотлар марказий давлат солиқ ташкилоти томонидан режалаштирилган муддатда, махсус алоқа тизими хизматчилари – чопарлар орқали форс подшоси қароргоҳига жўнатилган.

Сатрапликлар хазинасидан маълум миқдорда айнан сатрапнинг хонадонлари, мансабдорлар ва ҳарбийлар маош сифатида озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминланган (ун, чорва, ёғ, сабзавот, шароб, пиво ва бошқалар).

Забт этилган ҳудудларни идора қилиш мақсадида, подшо буйруқларини жойларга ўз вақтида етказиш ва сатрапликлардан турли маълумотларни тезкор олиш учун, аҳамонийлар давлатида махсус алоқа хизмати ташкил қилинган эди.

Ўрта ер денгизи буйидаги Кичик Осиёда Эфес шаҳридан бошланган “Шоҳ йўли” қадимги Форс давлати пойтахтларидан бири - Суза билан боғланган (масофаси 2470 км). Ушбу йўлнинг шарқий тармоқлари Бактрия орқали Сўғдиёна ва Ҳиндистонгача давом этган.

“Шоҳ йўли”да хавфсизликни таъминлаш учун ҳарбий истехкомлар ва махсус масканлар қошида озиқ-овқат омборхоналари барпо этилган эди. Ҳар бир 30 км масофада чопарлар учун дам олиш ва отларни алмаштиришга имкон яратилган. Хизмат сафарида давлат ишларини амалга оширувчи мансабдорлар (ҳисобчилар, ҳарбийлар, текшириш ва назорат хизмати вакиллари) ушбу йулда жойлашган омборхоналардан озуқа билан таъминланган.

Қадимги юнон тарихшуноси Ктесийнинг хабарига кўра, Бактра шаҳридан давлат пойтахти Сузага отланган амалдор ўз хизмат сафари даврида ҳар куни 1-1,5 кг ун, 1 литр шароб ёки пиво ҳамда маълум миқдорда гўшт билан бепул таъминланган.

#### 4-МАВЗУ: Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги йилларида археология соҳасида хориж билан илмий ҳамкорлик масаласи

##### РЕЖА:

- 1.1. Ўзбекистон археологияси ривожланишининг янги босқичи.
- 1.2. Ўзбекистон археологиясининг хориж билан илмий ҳамкорлиги: замонавий тадқиқотлар ва натижалар.

**Таянч иборалар:** мустақиллик, археология, халқаро шартнома, топилиши, натижа, янги илмий маълумотлар.

Мустақиллик йилларида ниҳоятда фаоллашган тадқиқотлар кўлами ва уларнинг илмий самараси туфайли, Ўзбекистон археологияси дунё илм-фани даражасига кўтарилди. Бундай натижа эса ўз навбатида, Ўзбекистон археологияси учун дунёдаги етакчи археология марказлари билан илмий ҳамкорлик ўрнатишга, тенг ҳуқуқли асосда халқаро шартномалар тузишга замин яратди. Айни пайтда, Ўзбекистон ҳудудида - Австралия, АҚШ, Хитой, Германия, Италия, Польша, Россия, Франция, Япония каби давлатларнинг археолог олимлари билан ҳамкорликда, халқаро миқёсда археологик тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўтган вақт мобайнида маҳаллий ҳамда халқаро экспедициялар томонидан юртимизнинг қадимги даври тарихига оид янги археологик ва палеоантропологик материаллар қўлга киритилди. Хусусан, Фергантроп одами қолдиқларининг топилиши ва тадқиқ этилиши натижасида Марказий Осиёнинг одамзод томонидан ўзлаштирилиши тарихи 1,5 миллион йилга қадимийлашди. Обираҳмат одами қолдиқларининг топилиши натижасида, Ўзбекистон ҳозирги вақтда илк замонавий одамлар (*Homo sapiens sapiens*) шаклланган ҳудуд сифатида эъти- роф этилмоқда. Обираҳмат ғорида олиб борилган тадқиқотлар маданий қатламларнинг аниқ кетма-кетлигини қайд этди. Бу ерда аниқланган гоминид қолдиқлари Ўзбекистон ҳудудида

неандерталларнинг *Homo sapiens* томон эволюциясини кузатишда муҳим топилма бўлиб хизмат қилади.

Кўлбулоқ, Қўтирбулоқ, Зирабулоқ палеолит манзилгоҳларини ўрганилиши жараёнида замонавий усуллар ёрдамида топилмаларнинг аниқ техник-типологик классификацияси ишлаб чиқилди, тошга ишлов беришнинг технологик ва типологик индекслари қайд этилди. Тош қуролларнинг янги турлари аниқланди. Илк маротаба Ўзбекистон палеолитшунослигида хом ашёнинг тошга ишлов бериш техникаси ривождаги ўрни аниқланди. Фарғона водийси, Қизилқум ва Зарафшон воҳасида сўнгги палеолит даврига оид янги ёдгорликларни аниқланиши бу ҳудудларда қадимги давр тарихидаги “оқ доғларни” йўқолишига олиб келди. Қизилқум неолит отряди томонидан амалга оширилган тадқиқотлар натижасида палеолит ва неолит даврига оид янги ёдгорликлар аниқланди. Хусусан, Оёқакетма неолит даври ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотларда Калтаминор маданиятида ёввойи ҳайвонларни хонакилаштирилиши борасидаги янги маълумотлар қўлга киритилди. Бу эса Қизилқум неолит жамоалари, нафақат овчилик ва балиқчилик билан шуғулланганликларини, балки чорвадор ҳам бўлганликларини кўрсатади. Шу билан бирга, Калтаминор маданиятини 3 минг йилга қадимийлаштирувчи маълумотлар ҳам қўлга киритилди.

Деҳқончилик, хунармандчилик ва маданиятнинг ривожланиши ҳамда илк шаҳар ва давлат бирлашмаларининг пайдо бўлиши асосида Турон цивилизациясининг энеолит-илк темир даврида шаклланиши ва юксалиши жараёнлари ўрганилди.

Бронза даврининг илк босқичлари борасидаги асосий материаллар Ўзбекистон жанубида - Жарқўтон, Бўстон ёдгорликларидан олинди. Хусусан, Жарқўтон протошаҳар ва илк давлат бирлашмаларининг пайдо бўлиши ва ривожланишини ўзида акс эттирувчи ёдгорлик ҳисобланади.

Самарқанд Суғдида, Челак шаҳри яқинидаги Кўктепа ёдгорлигида зардўштийлик ибодатхонаси, сарой ва мудофаа тизимларининг қисман очилиши қадимги шаҳарнинг ички тузилиши борасидаги маълумотларни қўлга киритиш имконини берди. Афросиёб ёдгорлигида олиб борилган

қазишмалар жараёнида эса шаҳарнинг тарихини 2750 йилга қадимийлаштирувчи маълумотлар қўлга киритилди, жанубий Суғдда аниқланган янги археологик материаллар асосида Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарлари ёши 2700 йилга тенг эканлиги аниқланди ва бу саналар ҳалқаро миқёсда нишонланди.

Археологик қазишмалар Эски Термиздаги буддавийлик маркази Қоратепада ҳам давом эттирилди. Маълум бўлишича, Термита-Термиз Кушонлар даврида Ўрта Осиёда буддавий-ликнинг йирик маркази бўлган. Бу ердан топилган бадий маданият ва ёзув намуналари Бактрия буддавийлик маданиятини ўзига хос хусусиятга эга эканлигини кўрсатди.

Мингтепа ёдгорлигида (Андижон вилояти) олиб борилган тадқиқотлар эса бу ерда илк темир даврига оид маданий қатламлар мавжудлигини кўрсатмоқда. Шу билан бирга, бу ерда 150-160 га майдонни ўраб олган ташқи мудофаа девори қолдиқлари ҳам аниқланди. Мудофаа деворлари тўртбурчак кўринишдаги шинаклар билан таъминланган миноралар орқали мустаҳкамланган. Қўлга киритилган материаллар асосида ички шаҳарни бурчакларидаги миноралар икки қаватли қилиб қурилганлиги асосланди. Шу билан бирга бу ерда илк бор антроморф ва зооморф элементлари туширилган кизил ангоб берилган сопол идишлар қолдиқлари топилди. Ушбу маълумотлар Б. Матбобоевнинг фикрича, Мингтепани пойтахт мақомига эга шаҳар эканлигини (Хитой манбаларида Эрши) кўрсатмоқда.

Ўзбекистон ҳудудида кенг миқёсда олиб борилган археологик тадқиқотлар кўплаб қадимги ва ўрта асрларга оид шаҳар ва қишлоқларни ўрганилишига имкон яратди. Жумладан, шаҳарларнинг функцияси, уларнинг морфологияси ва атроф-даги қишлоқлар ҳамда дашт аҳолиси билан алоқалари ҳар томонлама ўрганилди. Натижада, Ўзбекистоннинг барча ҳудудларида V-XIII аср бошларига оид шаҳар маданиятининг шаклланиши ва ривожланиши кузатилди. Чоч (Тошкент), Фарғона, Уструшона, Суғд ва Тоҳаристон ўрта аср шаҳарларининг тарихий топографияси ва ривожланиш босқичларига доир маълумотлар тўлдирилди. Ўзбекистоннинг қадимги меъморларининг шаҳарсозлик борасидаги ечимлари, қадимги ва ўрта аср

шаҳарларидаги ривожланиш структураси анъана-вийлиги аниқланди. Буларнинг барчаси ўрта аср шаҳарларининг ички ҳаёти, ҳунармандчилик, савдо-сотик, ижтимоий муносабатлар борасидаги тамоман янги маълумотларни қўлга киритиш ва шу орқали алоҳида ҳудудларнинг иқтисодий ривожланиш жараёнларини кузатиш имконини берди.

Самарқанд вилоятидаги Кофирқалъа ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар жараёнида Суғднинг илк ўрта асрлар сиёсий тарихи, маъмурий бошқаруви, ҳуқуқий амалиёти ва ташқи алоқалари борасида муҳим тарихий манба-кўп сонли буллалар қўлга китилди. Буллалар - муҳр изи ёки ёзув туширилган, цилиндр ёки айлана кўринишда бўлиб, лойдан ясалган. Буллалар орқали ҳужжатлар (шартнома, хат, билди-ришномалар) ҳуқуқий жиҳатдан тасдиқланган ёки муҳрланган. Товуслар ушлаб турган ҳолатда тахтда ўтирган Будда (Амиабхи ёки Авалокитешвар) тасвири, Рим худоси Янусга ўхшаш икки юзли маъбуд тасвири акс эттирилган буллалар ўзига хос, ўта ноёб ҳисобланади. Айрим буллалардаги тасвирларнинг илдизи эллин маданиятига бориб тақалса, айримларида эса маҳаллий қаҳрамонлар тасвири акс эттирилган.

Иқтисодий ўсиш талаблари, маданий ривожланиш ва ирригация тармоқларининг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, турли даврларда аҳоли турар-жойларининг пайдо бўлиши, ҳалқларнинг кўчиши жараёни босқичлари кузатилди. Шу билан бирга, Тошкентдаги Харашкент, Бухоро воҳасидаги Пойкент ва Марказий Фарғонанинг йирик пойтахт шаҳарларининг инқирози сабаблари аниқланди.

Ҳозирги Марғилон шаҳри ҳудудида олиб борилган қазишмалар натижасида, 20 га қамраб олган қадимги шаҳар ўрни аниқланди. Қўлга киритилган натижалар асосида ЮНЕСКО ҳомийлигида Марғилон шаҳрининг 2000 йиллиги халқаро миқёсда нишонланди.

Шимолий Фарғона ҳудудида олиб борилган тадқиқотлар жараёнида қўлга киритилган археологик материаллар ва ёзма манбалар таҳлили асосида қадимги Фарғонанинг пойтахти - "Фарғана" ("Юань") Эски Аҳси (Ахсикет) ёдгорлиги ўрнида бўлган, деган хулосага келинди.

Бухоро Суғдида жойлашган йирик ёдгорликларидан бири Пойкентда археологик қазишмалар давом эттирилмоқда. Буюк Ипак йўлида жойлашган ва шарқда Хитой билан савдо алоқаларини олиб борган, Қора денгизда денгиз факториялари- га эгалик қилган Пойкент ёзма манбаларда Би князлиги, “савдогарлар шаҳри” сифатида қайд этилган. Археологик қазишмалар жараёнида арқда зардўштийлик ибодатхонаси, жо- меъ масжиди ва минораси, ҳукмдор саройи, хазина, қурол- аслаҳа сақланадиган жой ва мудофаа девори бўйлаб жойлаш- ган казармалар қолдиқлари очилди. Биринчи ва иккинчи шаҳристонда монументал фортификация тизими, турар жой- лар мажмуаси, темирчилар устахоналари, нонвойхоналар, та- библар қабулхоналари жойлашган кўчалар ҳамда 4500 га яқин ноёб Суғд мис тангалари қўлга киритилди.

Бухоро воҳасида олиб борилган кенг миқёсдаги тадқиқотлардан яна бири Кампирдевор номи билан машҳур воҳа деворини тадқиқ этиш ҳисобланади. Тадқиқотлар натижасида, деворнинг 300 км.га чўзилганлиги ва 15 рустоқ- туманни қамраб олганлиги аниқланди. Девор ҳар 8-10 км масофада минора, қальалар, дарвозалар ва уларнинг ёнида карвонларни на- зорат қиладиган божхоналар билан мустаҳкамланган. Воҳа де- ворининг илк қурилиши V асрга оид бўлиб, у воҳани кўчманчилардан ҳимоя қилиш учун хизмат қилган.

Шоштепада аниқланган эраמידан аввалги II асрларга оид хочсимон шаклдаги архитектура қолдиқлари - қадимги Тошкент худудида шаҳарсозлик маданиятининг пайдо бўлишини намоён этади.

Кейинги йилларда олиб борилган тадқиқотлар давомида IX- XII ва ўтмишда Уструшона мамлакатининг шимолий-ғарбий ва ғарбий сарҳадлари ҳисобланган Жиззах воҳасининг энг қадимги шаҳар марказларидан бири Қалиятпанинг арк, шаҳристон, рабод қисмларида мунтазам қазув тадқиқотлар ўтказилди. Натижада, қадимги Жиззах шаҳри ўрни Қалиятепада мил. авв. III-II асрларда шаклланганлиги исботланди.

Республика худудининг антропоген ўзлаштирилиш ва ривожланиш динамикасини ўрганишда Ўзбекистон археология ёдгорликларини тизимлаштириш борасида асосий вазифа ар- хеологик ёдгорликларни



сақланишини давлат ва маҳаллий бошқарув органлари томонидан назоратини амалга ошириш мақсадида юқори замонавий технологиялардан фойдаланган ҳолда хариталарини тузиш, расмга олиш, йиғма топилмалар ва ёзма манбалар асосида идентификация қилиш муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу йўналишдаги мақсад ва вазифалар ёдгорлик-ларни тизимлашган маълумотлар базасини яратиш, уларнинг сақланиши ва муҳофазасини амалга ошириш билан бирга, шаҳар ва қишлоқлар тарихий топографияси, ҳалқларнинг миграцияси бўйича тадқиқотларни ривожлантириш ҳамда антропоген ландшафтнинг шаклланиши, кенгайиши, баъзида эса экология ва табиий муҳит таъсирида ўзгариш билан боғлиқ (шаҳар, қишлоқ, аҳоли пунктларининг шаклланиши, ривож-ланиши, инқирози ва х.к.) янги илмий маълумотлар қўлга киритиш имконини беради.

Ўзбек археологиясининг ҳозирги кундаги бош илмий йўналиши ва мақсади мамлакатимиз ҳудудида шаклланган кўҳна маданиятлар тарихининг ўнлаб қирраларини тинимсиз тадқиқ қилиш, Ўзбекистон мустақиллиги берган чексиз имко-ниятлар шарофати билан бу ҳудудда яшаётган миллатлар ва элатларнинг ота мерос, илмий, маданий бойлиги бўлган қадимий тарихнинг ҳаққоний манзарасини қайта, холис яратиш йўлидаги тинимсиз изланишлардан иборатдир.

### **Мавзу бўйича такрорлаш учун саволлар:**

1. Ўрта Осиёнинг илк темир ва антик даврлари археологияси муаммолари.
2. Ўрта Осиёнинг илк темир даври археологияси этно-маданий миграциялар.
3. Ўрта Осиё ҳудудларида қадимги давлатларнинг шаклланиш муаммолари.
4. Ўрта Осиёнинг антик даври маданий-тарихий вилоятларнинг йирик шаҳар марказлари. Сирдарё ҳавзаси ўтроқ деҳқонлари ва чорвадор қабилалари.

## Адабиётлар руйхати

1. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т., 2000. doc.
2. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси - давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т.2011. pdf
3. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. “YURIST-MEDIA MARKAZI” нашриёти. Тошкент. 2008.
4. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1996. pdf.
5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2004. pdf.
6. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. Самарканд. 1993.
7. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo`li - sivilizatsiyalararo muloqot yo`li. O`quv qo`llanma. T. 2010. pdf.
8. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O`quv qo`llanma. T.: ToshDSHI. 2010. pdf.
9. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986. pdf.
10. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.
11. Зубов А.А. Становление и первоначальное расселение рода “Homo”. Санкт-Петербург. 2011.
12. Рындина Н.В., Дегтярева А.Д. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие по курсу «Основы археологии». Изд. МГУ.2002.

### Электрон манбалар:

5. [www.history.ru](http://www.history.ru)
6. [www.natura.com](http://www.natura.com)
7. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
8. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)

## I. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

- 1-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning tosh va paleometall davri jamoalarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik iqtisodiy asoslari, ma‘naviy kechinmalari, madaniy aloqasi va madaniyatlar genezisi (2 soat).
- 2-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklarining umumiy tasnifi. Asosiy yodgorliklar va ularning moddiy madaniyati (2 soat).
- 3-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning antik davri arxeologiyasining zamonaviy o‘rganish bosqichi. Asosiy yodgorliklar. Tadqiqotlar natijalari va muammolar (2 soat).
- 4-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asr arxeologiyasini o‘rganishning asosiy masalalari: natijalar – yutuqlar – muammolar (2 soat). **5-amaliy mashg‘ulot.** O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar davri asosiy yodgorliklari. Ularning umumiy tasnifi. Yangi tadqiqotlar. Xalqaro turizm muammolarida muzeyifikatsiya masalalari. (2 soat).
- 6-amaliy mashg‘ulot.** Xorij bilan ilmiy hamkorlik masalasining zamonaviy bosqichi: natijalar – yutuqlar – muammolar – muhofaza masalalari. Arxeologiya sohasida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi qonunlar va qarorlar (2 soat).

## O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. GIS tarixi va uning arxeologiya sohasida qo'llanilishi
2. Gis yoki Gat tushunchasiga ta'rif
3. GIS sohasida qo'llanilayotgan dasturlar
4. Xaritalar turlari va ular haqida ma'lumot
5. Arxeologiyada topografik xaritalarning qo'llanilishi
6. Gis yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish
7. Arc GIS va uning tarkibiy qismlari
8. Koordinatalar tizimi haqida ma'lumot
9. Arc GIS dasturida xaritalarni koordinatalar tizimi bilan bog'lash. 10. Arc GIS dasturida chiziqli, maydonli va nuqtali ob'ektlar yaratish. 11. Arc GIS dasturida simvollar yaratish va ular ustida ishlash 12. Atribut jadvali yaratish va ular ustida ishlash
13. Arxeologik yodgorliklar xaritasini yaratish va chop etish
14. Ma'lumotlar jadvali haqida tushuncha.
15. Arc GIS dasturida ma'lumotlar jadvalini yaratish.
16. Ma'lumotlar jadvalida ustunlar va qatorlarda yodgorliklar haqida kiritiladigan ma'lumotlar.
17. Arc GIS va Excel. Excelda yaratilgan ma'lumotlarni Arc GIS dasturiga yuklash.
18. Arxeologiyada zamonaviy axborot tizimlari.

19. Arxeologik tadqiqotlarda Gis tizimini qo‘llashdan asosiy maqsad

20. Vatanimiz va Xorijiy mamlakatlar xududida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda Gis tizimining qo‘llanilishi

### **III. KeYSLAR BANKI**

#### **1-keys-stadi.**

Keys 1. Arxeologiya atamasiga kim asos solgan. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi sabablarini ko‘rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Arxeologiya atamasiga ta'rif. U qanday ma'noni anglatadi. Arxeologiya atamasini kim muomalaga kiritgan.
- Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi sabablarini keltiring.

#### **2-keys-stadi.**

Keys 2. yer sharida xayotning paydo bo‘lishi va ilk ibtidoiy odamlarning kelib chiqishi shart-sharoitlari

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- yerda xayot kandy paydo bo‘lgan. yer shari tarixi xaqida ma'lumot keltiring
- Odamzodning xayvonot dunyosidan odaamzod dunyosiga qadam qo‘yishiga sabab bo‘lgan omillarni izoxlang

#### **3-keys-stadi.**

Keys 3. Dastlabki gominidlarinng paydo bo‘lishi sabablarini ko‘rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Gominidlar atamasiga ta'rif bering. U qanday ma'noni anglatadi
- yer yuzida topilgan dastlabki paleantropologik topilmalar xaqida ma'lumot keltiring va qiyosiy taxlil qiling

#### **4-keys-stadi.**

Keys 4. Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etiladi. va sabablarini ko‘rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududidagi dastlabki ibtidoiy ajdodlarimizga oid topilmalar va ularinng taxlilini keltiring.

- Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etilishi sabablarini keltiring

### **5-keys-stadi.**

Keys 5. Nima sababdan dastlabki ajdodlarimiz Afrikadan Yaqin va O'rta Sharq xududida orqali yer yuzining boshqa xududlariga migratsiya qilishgan va sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududida va Yaqin hamda O'rta Sharq paleolit davri iqlim, shart-sharoitlari haqida ma'lumot keltirng va ularinng taxlil qiling.
- Yaqin va O'rta Sharq xududidagi eng qadimgi tosh davri yodgorliklari va topilmalari

### **6-keys-stadi.**

Keys 6. Nima sababdan dastlabki arxeologik tadqiqotlar yevropa xuuddida o'tkazilgan ko'pgina arxeoogik davrlar yevropa xududid bilan bog'liq sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- yevropada o'tkazilgan dastlabki arxeoogik izlanishlar ularning taxlilini keltirng. yevropa xududidan xoziiirgi zamon tipidagi odamning dastlabki topilmalarinng qayd etilishi va Xomo Sapiens muammosi.

-

### III. GLOSSARIY

ATAMA	Terminology	TERMIN	O`zbek tilidagi sharxi
Arxeologiya	Archaeology	Arxeologiya	Arxayos-qadimgi va logos-fan degan ma'noni anglatadi
Antikvariyy	Antiquitates	Antikvariyy	Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o'rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo'llashgan.
Qadimiyot	Antiquaries	Drevnost	Rimlik mualliflar yunoncha antiquitates-qadimiyot sohasi vakillarini esa «antiquaries» - antikvariyy, ya'ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashgan.
Olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit	Olduvai, Ashel, Mousterian and Upper Paleolithic	Olduvey, Ashel, muste i pozdnyy paleolit	Paleolit davri bosqichlari.
Klekton madaniyati	Clactonian	Klektonskaya kultura	mil avv. 550-475 ming yilliklarda yevropaning quyi paleolit davri madaniyati
Yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya	Savagery, barbarism and civilization	Dikarstvo, varvarstvo i sivilizatsiya	Shotlandiyalik
			faylasuf A. Fergyuson insoniyat tarixini uchta davrga ajratib ko'rsatgan
Neolit, bronza va ilk temir davrlari	Neolithic, Bronze and early Iron Age	Neolit, bronza i RJV	Arxeologik davrlar xisoblanadi.
Pleystotsén	Pleistocene	Pleystotsén	(yunonchada πλεῖστος) bundan 2,588 million yil avval boshlanib 11,7 ming yil avval tugagan geologik

			davrlardan biri.
<b>To‘rtlamchi davr yoki antropogen davri</b>	<b>Quaternary period, or anthropogenic</b>	<b>Черvertichный period ili antropogen</b>	Bundan 2,588 million yil avval boshlanib hozirga qadar davom etmoqda.
<b>Petrografiya</b>	<b>Petrography</b>	<b>Petrografiya</b>	Bu geologiya fani bo‘lib, u tog‘ jinslarni har tomonlama o‘rganadi.
<b>Geoxronologiya</b>	<b>Geochronology</b>	<b>Geoxronologiya</b>	yerning yoshini yillar bilan ifodalab berish
<b>Arxey erasi</b>	<b>Archaea</b>	<b>Arxey</b>	Geologik davrlardan biri bo‘lib, Bu erada yerda xali xayvon organizmlari kam va o‘simlik organizmlari bo‘lmagan
<b>Kaynozoy erasi</b>	<b>Cainozoe</b>	<b>Kaynozoy</b>	Uchlamchi va to‘rtlamchi davrlardan iborat.
<b>To‘rtlamchi davr</b>	<b>Quaternary period</b>	<b>Черvertichный period</b>	Ya‘ni insoniyat paydo bo‘lgan davr antropogen davri deb xam yuritiladi.
<b>Pleistotsen</b>	<b>Pleistocene</b>	<b>Pleistotsen</b>	Buyuk muzliklar mavjud bo‘lgan davr hisoblanadi
<b>Pitekantrop</b>	<b>Pithecanthrope</b>	<b>Pitekantrop</b>	arxeologiya fanida Noto erectus deb yuritiladi va 1981 yilda gollandiyalik olim E.Dyubua tomoindan Indoneziyaning Yava orolidan topilgan.
<b>Avstralopitekus afarensis</b>	<b>Australopithecus afarensis</b>	<b>Avstralopitekus afarensis</b>	bundan 4-2,5 million yil avval Sharqiy Afrikada istiqomat etgan.
<b>Olduvey</b>	<b>Olduvai</b>	<b>Olduvey</b>	Afrika xududida aniqlangan dastlabki tosh davri madaniyati.
<b>Xomo sapiens</b>	<b>Homo sapiens</b>	<b>Xomo sapiens</b>	Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
<b>Nomo va unga tegishli dastlabki toshqurollar</b>	<b>Nomo and his early work tool</b>	<b>Nomo i yego rannie orudie truda</b>	2.5 million yil avval Sharqiy Afrika xududida paydo bo‘ladi.



<b>Xomo Ergaster- Xomo Erektus</b>	<b>Noto ergaster— Noto erectus</b>	<b>Xomo Ergaster- Xomo Erektus</b>	Ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan yevroosiyoga dastlabki migratsiyasini boshlab bergan
<b>Selung‘ur</b>	<b>Selengur</b>	<b>Selungur</b>	O‘zbekiston tosh davri yodgorligi
<b>Kulbuloq yodgorligi</b>	<b>Kulbulyak</b>	<b>Kulbulyak</b>	O‘zbekiston tosh davri yodgorligi
<b>Kadimgi tosh asri</b>	<b>Paleolith</b>	<b>Paleolit</b>	Qadimgi tosh davri.
<b>Zinjanthrop</b>	<b>Zinjanthropus</b>	<b>Zinjanthrop</b>	Tanzaniyaning Zinji qishlog‘idan topilgan odam..
<b>Pitekanthrop</b>	<b>Pithecanthrope</b>	<b>Pitekanthrop</b>	(yunoncha “pitekos” – maymun, “antropos” – odam) Indoneziyaning Yava orolidan topilgan eng ʻadimgi odam.
<b>Xomo sapiens</b>	<b>Homo sapiens</b>	<b>Xomo sapiens</b>	Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
<b>Xitoy odami</b>	<b>Sinanthropus</b>	<b>Sinantrop</b>	Xitoy odami.
<b>Xomo Xabilis</b>	<b>“Homo habilis”</b>	<b>Xomo Xabilis</b>	“ishbilarmon odam”.
<b>Xomo Erektus</b>	<b>Homo erectus</b>	<b>Xomo Erektus</b>	to‘g‘ri tik yuruvchi odam
<b>Antropologiya</b>	<b>Anthropology</b>	<b>Antropologiya</b>	Odamni o‘rganuvchi fan
<b>O‘rta Sharq atamasi</b>	<b>Near East</b>	<b>Ближний Восток</b>	-(ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan 1850 yilda qo‘llanilgan.
<b>El-Masluk yodgorligi</b>	<b>Monument El Masluk</b>	<b>Памятник El- Masluk</b>	1969 yilda Kolumbiya universiteti
			arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o‘rganilgan.
<b>Ubeydiya</b>	<b>Ubaid</b>	<b>Ubeydiya</b>	(pleystotsen davri arxeologik yodgorligi hisoblanadi

<b>Tabun g'ori</b>	<b>Tabun Cave</b>	<b>Пещера Tabun</b>	Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan arxeologik yodgorlik.
<b>Kebara g'ori</b>	<b>Cave Kebara</b>	<b>Пещера Kebara</b>	o'rta tosh davriga oid bo'lib, Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Bundan 60-48 ming avval ushbu g'or makoni ajdodlarimiz tomomnidan o'zlashtirilgan
<b>Sxul g'or makoni</b>	<b>Cave Es Skhul</b>	<b>Пещера Sxul</b>	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.
<b>Kafzex</b>	<b>Monument Kafzeh</b>	<b>Памятник Kafzex</b>	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.
<b>Darrai -Kur</b>	<b>Darrai -Kur</b>	<b>Darrai -Kur</b>	Afgoniston xududida joylashgan tosh davri yodgorligi.
<b>Ashel</b>	<b>Ashell</b>	<b>Ashel</b>	paleolit davrining ilk bosqichi
<b>Muste</b>	<b>Moustier</b>	<b>Muste</b>	paleolit davrining o'rta bosqichi
<b>Orinyak, Solyutre va Madlen</b>	<b>Aurignacian, Solutrean and Madeleine</b>	<b>Orinyak, Solyutre i Madlen</b>	Fransiya xududida joylashgan paleolit davri yodgorligi
<b>Neandertal odami</b>	<b>Neanderthal</b>	<b>Неандертальский человек</b>	ilk bora Germaniyaning Feldgofer g'oridan topilgan.
<b>Teyja</b>	<b>Teyzha</b>	<b>Teyja</b>	(Fransiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan
<b>Ibtidoiy san'at</b>	<b>Prehistoric art</b>	<b>Первобытное искусство</b>	p arxeologik davrlardan biri yuqori paleolit davrida vujudga kelgan
<b>Lasko</b>	<b>Lasko</b>	<b>Lasko</b>	Fransiyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or

			makon yodgorligi
Altamir	Altamir	Altamir	Ispaniyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or makon yodgorligi

#### IV.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

##### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фақат фақат бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

##### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июнь “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий

университетида талаб юкори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантири чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли Қарори.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995-сонли Қарори.

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4068-сонли Қарори.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Ибрагимов Р.З. Археология . “Университет” 2019
2. Археология. Под. ред. В.Л. Янина. М., «Изд. МГУ», 2006.
3. Мартынов А.И. Археология. М., «Высшая школа» 2006.
4. Кабиров Ж., Сагдуллаев А . Ўрта Осиё археологияси. Т., “Ўқитувчи” 1990.
5. Эгамбердиева Н.А. Археология. Т., 2011.

### **IV.Qo`shimcha adabiyotlar**

1. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Самарканд, 1993.
2. Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии. Ч.1. Учебное пособие. Самарканд. Изд. Сам ГУ. 1988. Pdf
3. Беленицкий А.М. Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л. 1973.
4. Рындина Н., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. М. 2002. Djvu

5. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. Отв. ред. Г.Л. Брыкина. М., «Наука» 1999.
6. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1996. pdf.
7. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2004. pdf.
8. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т., 2000. pdf.
9. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.

#### **IV. Internet saytlari**

1. <http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
2. <http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
3. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази
4. <http://ziyonet.uz> – Таълим портали Ziyonet
5. <http://natlib.uz> – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси
6. [https:// www.history.ru](https://www.history.ru)
7. [https:// www.natura.com](https://www.natura.com)
8. [https:// www.archaeology.ru](https://www.archaeology.ru)
9. <https://www.archaeology.com>

## NAZORAT SAVOLLARI

1	Ellin madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatgan hududni ko'rsating?
2	O'zbekistonning bronza davri protoshahar tipidagi manzilgohini aniqlang?
3	O'rta Osiyoda sug'orish kanallari dastlab qachon paydo bo'lgan?
4	Markaziy Osiyoning qaysi yodgorliklarida xaoma qoldiqlari topilgan?
5	Dehqonchilik dastlab qayerda paydo bo'lgan ?
6	Saklar Axamoniylar davlatining kaysi satrapligini tashkil qilganlar ?
7	Qaysi omil ibtidoiy jamiyatga ma'lum bo'lmagan?
8	Arxeologiya fanida qaysi davr xo'jaligi shaklining tub o'zgarishi va yangilanishi tufayli "inkilob" davri deb atalgan?
9	Muxrlarda tamg'a belgilari kaysi davrda vujudga kelgan?
10	Marg'iyona bronza davri yodgorliklarining xududiy joylashishini ko'rsatib bering.
11	Baqtriyaning janubiy chegaralarini belgilab bering
12	Tadqiqotchilar farazlariga ko'ra "Katta Xorazm" davlati tarkibiga qaysi viloyatlar kirgan?
13	Baqtriya va Sug'dning tabiiy chegaralarini ko'rsatib bering.
14	Ilk yozma manbalarda tilga olingan Areyya- bu...
15	"Qadimiy kaviylar podshohlari» to'g'risida nazariya qaysi manba ma'lumotlariga tayangan?
16	"Aryonam Vaychax" makrotoponimi tilga olingan manbani aniqlab bering.
17	Viloyat birlashmalari "Avesto" da qanday nomlangan?
18	Eng qadimgi yozuv namunasi topilgan yodgorlikni belgilab bering.
19	O'rta Osiyoda eng kadimgi yozuv namunalari topilgan viloyatni ko'rsatib bering.
20	Aryoshayyona kabi siyosiy birlashma xaqida nazariya qaysi manba ma'lumotlariga asoslangan?
21	Qaysi arxeologik yodgorlik Baqtriya xududida joylashgan?
22	Qadimgi Xorazmning qaysi yodgorligida saroy qoldiqlari o'rganilgan?
23	Qadimgi Xorazm madaniyati yodgorligi Dingilja- bu...
24	Qadimgi Xorazm podshohligi to'g'risidagi g'oyani dastlab kim o'rta tashlagan?
25	Taxminlarga ko'ra "Katta Xorazm" ning markazlari qayerda joylashgan?
26	Tadqiqotchilar farazlariga ko'ra "Katta Xorazm" davlati qaysi hududlarni birlashtirgan?
27	Ilk temir davriga oid Qiziltepa-bu...
28	Qizilcha- yodgorligi bu...
29	Ilk temir davriga oid qaysi yodgorlik Baqtriya Sug'd hududida joylashgan?
30	Bronza davriga oid Dashtli olov ibodatxonasi qayerda o'rganilgan ?
31	Qaysi-arxeolog olim XX -asr oxirlari XXI- asr boshlarida Marg'iyona sivilizatsiyasini o'rganishga katta hissa qo'shgan?
32	Eng qadimgi olov ibodatxonalar qaysi tarixiy- madaniy viloyatlar hududlarida aniqlangan?
33	Eng qadimgi otashkadalar qayerda topilgan ?
34	O'rta Osiyoda saroylar qaysi davrda vujudga kelgan?

35	O'рта Osiyoda mudofaa burjlar qachon paydo bo'lgan ?
36	O'рта Osiyoda ilk davlatlar kaysi xududiy asosda vujudga kelgan?
37	Ilk temir davriga oid Oltindiyor qal'asi qaysi hududda bunyod etilgan?
38	Ko'ktepa shahar xarobalari qaysi hududda joylashgan ?
39	Gekateyning yozishicha "xorasmiylar" elati kaerda joylashgan?
40	Baktriyada davlatchilikning shakllanishi kaysi davr bilan belgilaniladi ?
41	"Avesto"da "Gava" toponimi kaysi hududga tegishli?
42	Saroy va ibodatxonalardan iborat Gonur shahar xarobasi kaysi xududda topib tekshirilgan?
43	Shartli ravishda «Oks sivilizatsiyasi» deb qaysi sivilizatsiyaga aytilgan?
44	XI-XII asrlarda o'rtacha yozgi va qishki harorat to'g'ri berilgan qatorni toping?
45	"Avesto"da Marg'iyona qaysi shaklda tilga olingan?
46	"Avesto"ning Videvat kitobida Baqtriya qaysi shaklda tilga olingan?
47	Massagetlar tarixini kim yaratgan?
48	Antik davrida mashhur "Geografiya" asarini kim yaratgan?
49	Knidlik Ktesiy asarini aniqlang?
50	Ahamoniylar davri fors podsholarning mixsimon bitiklari topilgan joylarni aniqlab bering?
51	Baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'dlar va saklarning o'yib ishlangan bo'rtma rasmlari qaysi qadimgi shaharda topilgan?
52	"Bundan so'ng men saklarga qarshi sak yurtiga bostirib bordim,ularning o'zlari chuqqi qalpoq kiyib yuradilar" degan xabar qaysi podsho buyrig'iga binoan bitilgan?
53	"Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqib ketdi marg'iyonalik Frada ismli bir odam uzini viloyatning hokimi deb e'lon qildi" degan xabar qaysi yozuvlarida uz aksini topgan?
54	Qaysi qadimgi tarixchi Ossuriya va Baqtriya podsholari urushlari tug'risida hikoya qilgan?
55	"Avesto" buyicha "uy", "oila" atamasini aniqlab bering.
56	"Avesto" buyicha "urug'" tushunchasini kursatib bering?
57	"Avesto"da oliy hukmdor-podsho qanday deb atalgan?
58	"Avesto" buyicha "viloyat" atamasini aniqlang?
59	"Avesto"da "zantu" tushunchasi-bu?
60	"Avesto"ning eng qadimgi qismi "Yasht" qaysi asrlarga oid?
61	"Avesto" da harbiy yulboshchi – bu?

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**



VEB-SAYT